

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА <i>o prestavitel'niy tsifrovyykh produktov i svyazannykh uslug</i>	OMMAVIY OFERTA <i>raqamli mahsulotlar va ular bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etish to'g'risida</i>
г. Ташкент _____ 2026 года Редакция от «___» _____	Toshkent shahri _____ yildagi tahrir «___» _____ 2026-
ИП ООО «KUNDALIK» в лице генерального директора Потапкина Александра Анатольевича, действующего на основании устава, именуемое в дальнейшем «Исполнитель», в соответствии со статьёй 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан предлагает юридическим лицам и индивидуальным предпринимателям, полностью и безоговорочно принимающим условия настоящей публичной оферты, заключить договор на изложенных ниже условиях.	Ustav asosida ish yurituvchi bosh direktor Aleksandr Anatolyevich Potapkin nomidan «KUNDALIK» MChJ XK, keyingi o'rinlarda «Ijrochi» deb atalib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq ushbu ommaviy oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qiluvchi yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga quyidagi shartlarda shartnoma tuzishni taklif etadi.
1. ТЕРМИНЫ И ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ	1. ATAMALAR VA UMUMIY QOIDALAR
1.1. Публичная оферта (Оферта) — настоящий документ, содержащий общие условия предоставления Продуктов Исполнителя. После Акцепта Оферта приобретает силу договора между Исполнителем и Организацией (далее — Договор).	1.1. Ommaviy oferta (Oferta) — Ijrochi Mahsulotlarini taqdim etishning umumiy shartlarini belgilovchi ushbu hujjat. Akseptdan so'ng Oferta Ijrochi va Tashkilot o'rtasidagi shartnoma kuchiga ega bo'ladi (keyingi o'rinlarda — Shartnoma).
1.2. Организация — юридическое лицо или индивидуальный предприниматель, осуществивший Акцепт Оферты и приобретающий один или несколько Продуктов Исполнителя для своей деятельности.	1.2. Tashkilot — Ofertani Aksept qilgan hamda o'z faoliyati uchun Ijrochining bir yoki bir nechta Mahsulotlarini sotib oluvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.
1.3. Продукт Исполнителя (Продукт) — программное обеспечение, информационная система, интернет-сервис, платформа, мобильное приложение, подписка, цифровой контент, модуль, API, технологическое решение либо иной цифровой продукт, право доступа к которому и/или услуги в отношении которого предоставляет Исполнитель.	1.3. Ijrochi mahsuloti (Mahsulot) — Ijrochi kirish huquqini va/yoki unga oid xizmatlarni taqdim etadigan dasturiy ta'minot, axborot tizimi, internet-servis, platforma, mobil ilova, obuna, raqamli kontent, modul, API, texnologik yechim yoki boshqa raqamli mahsulot.
1.4. Специальные условия Продукта — приложение к Договору, устанавливающее применительно к конкретному Продукту его описание, функциональность, способы доступа, состав услуг, технические требования, показатели доступности, правила использования, условия обработки данных, тарифы и иные специальные условия.	1.4. Mahsulotning maxsus shartlari — muayyan Mahsulotga nisbatan uning tavsifi, funksional imkoniyatlari, kirish usullari, xizmatlar tarkibi, texnik talablar, foydalanish imkoniyati ko'rsatkichlari, foydalanish qoidolari, ma'lumotlarni qayta ishlash shartlari, tariflar va boshqa maxsus shartlarni belgilovchi Shartnomaga ilova.
1.5. Заказ на Продукт (Заказ) — заявка, заказ, спецификация, счёт-оферта, электронная форма либо иной документ, в котором Организация выбирает конкретный Продукт, тариф, объём, срок и стоимость. Акцептированный Заказ является неотъемлемой частью Договора.	1.5. Mahsulotga buyurtma (Buyurtma) — Tashkilot muayyan Mahsulot, tarif, hajm, muddat va narxni tanlaydigan ariza, buyurtma, spetsifikatsiya, hisob-oferta, elektron shakl yoki boshqa hujjat. Aksept qilingan Buyurtma Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
1.6. Пользователь — физическое лицо, которому Организация либо Исполнитель в рамках Оферты предоставили право использования Продукта.	1.6. Foydalanuvchi — Oferta doirasida Tashkilot yoki Ijrochi tomonidan Mahsulotdan foydalanish huquqi berilgan jismoniy shaxs.
1.7. Учётная запись — совокупность данных, позволяющих идентифицировать Пользователя и определить объём его прав в Продукте. Доступ может осуществляться посредством логина и пароля, одноразового кода, электронной подписи, единой системы идентификации либо иного способа, предусмотренного Специальными условиями Продукта.	1.7. Hisob qaydnomasi — Foydalanuvchini aniqlash va uning Mahsulotdagi huquqlari hajmini belgilash imkonini beruvchi ma'lumotlar majmui. Kirish login va parol, bir martalik kod, elektron imzo, yagona identifikatsiya tizimi yoki Mahsulotning maxsus shartlarida nazarda tutilgan boshqa usul orqali amalga oshirilishi mumkin.
1.8. Услуги — подключение, настройка, внедрение, сопровождение, техническая поддержка, обучение, консультации, хранение и обработка данных, обновление либо иные действия Исполнителя, связанные с Продуктом.	1.8. Xizmatlar — Mahsulot bilan bog'liq ulash, sozlash, joriy etish, hamrohlik, texnik yordam, o'qitish, maslahat, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash, yangilash yoki Ijrochining boshqa harakatlari.
1.9. Тариф — совокупность доступной функциональности, объёма использования, срока, состава Услуг и правил расчёта стоимости конкретного Продукта.	1.9. Tarif — muayyan Mahsulot bo'yicha mavjud funksional imkoniyatlar, foydalanish hajmi, muddati, Xizmatlar tarkibi va narxni hisoblash qoidolari majmui.
1.10. Документация — инструкции, руководства, правила, технические требования и иные материалы по Продукту, размещённые в интерфейсе Продукта, на сайте Исполнителя или предоставленные Организации иным способом.	1.10. Hujjatlar — Mahsulot interfeysida, Ijrochi saytida joylashtirilgan yoki Tashkilotga boshqa usulda taqdim etilgan Mahsulotga oid yo'riqnomalar, qo'llanmalar, qoidalar, texnik talablar va boshqa materiallar.
1.11. Акцепт — полное и безоговорочное принятие Оферты и применимых Специальных условий Продукта способом, предусмотренным разделом 3 Договора.	1.11. Aksept — Ofertani va qo'llaniladigan Mahsulotning maxsus shartlarini Shartnomaning 3-bo'limida nazarda tutilgan usulda to'liq va so'zsiz qabul qilish.
1.12. Рабочий день — день, который не является выходным или официальным праздничным днём в Республике Узбекистан.	1.12. Ish kuni — O'zbekiston Respublikasida dam olish yoki rasmiy bayram kuni hisoblanmaydigan kun.

1.13. Официальный сайт — интернет-ресурс Исполнителя, адрес которого указан в реквизитах, соответствующих Специальных условиях Продукта или Заказа.	1.13. Rasmiy sayt — manzili rekvizitlarda, tegishli Mahsulotning maxsus shartlarida yoki Buyurtmada ko'rsatilgan Ijrochining internet-resursi.
1.14. Договор состоит из настоящей Оферты, акцептированных Заказов, применимых Специальных условий Продуктов и документов, прямо включённых в них посредством ссылки. Каждый Заказ регулирует отдельный Продукт и не изменяет условия иных Заказов, если прямо не указано обратное.	1.14. Shartnoma ushbu Oferta, aksept qilingan Buyurtmalar, qo'llaniladigan Mahsulotlarning maxsus shartlari va ularga havola orqali bevosita kiritilgan hujjatlardan iborat. Har bir Buyurtma alohida Mahsulotni tartibga soladi va, agar to'g'ridan-to'g'ri boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, boshqa Buyurtmalar shartlarini o'zgartirmaydi.
2. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА	2. SHARTNOMANING PREDMETI
2.1. Исполнитель обязуется в течение согласованного срока предоставить Организации право доступа к выбранным Продуктам и оказать связанные с ними Услуги, а Организация обязуется соблюдать условия их использования и уплачивать установленную плату.	2.1. Ijrochi kelishilgan muddat davomida Tashkilotga tanlangan Mahsulotlardan foydalanish huquqini taqdim etish va ular bilan bog'liq Xizmatlarni ko'rsatish, Tashkilot esa foydalanish shartlariga rioya qilish va belgilangan haqni to'lash majburiyatini oladi.
2.2. Наименование, назначение, функциональность, тариф, количество Пользователей, лицензий или иных единиц учёта, срок доступа, цена, порядок внедрения, объём поддержки и иные параметры каждого Продукта определяются исключительно соответствующими Специальными условиями Продукта и Заказом.	2.2. Har bir Mahsulotning nomi, maqsadi, funksional imkoniyatlari, tarifi, Foydalanuvchilar, litsenziyalar yoki boshqa hisob birliklari soni, kirish muddati, narxi, joriy etish tartibi, yordam hajmi va boshqa parametrlari faqat tegishli Mahsulotning maxsus shartlari va Buyurtma bilan belgilanadi.
2.3. Если иное прямо не установлено в Специальных условиях, Организации предоставляется ограниченное, неисключительное, непередаваемое право использования Продукта в пределах согласованного срока и объёма без права получения исходного кода, отчуждения, сублицензирования или распространения.	2.3. Agar Maxsus shartlarda bevosita boshqacha belgilanmagan bo'lsa, Tashkilotga Mahsulotdan kelishilgan muddat va hajm doirasida foydalanish uchun cheklangan, mutlaq bo'lmagan va boshqa shaxsga o'tkazilmaydigan huquq beriladi; bunda dastlabki kodni olish, begonalashtirish, sub litsenziyalash yoki tarqatish huquqi berilmaydi.
2.4. Подключение или прекращение использования одного Продукта само по себе не влечёт подключения, изменения либо прекращения использования других Продуктов.	2.4. Bitta Mahsulotni ulash yoki undan foydalanishni to'xtatish o'z-o'zidan boshqa Mahsulotlarni ulash, o'zgartirish yoki ulardan foydalanishni to'xtatishga olib kelmaydi.
2.5. Перечень доступных Продуктов может расширяться. Новый Продукт становится предметом Договора только после Акцепта Организацией соответствующих Специальных условий и Заказа.	2.5. Mavjud Mahsulotlar ro'yxati kengaytirilishi mumkin. Yangi Mahsulot faqat Tashkilot tegishli Maxsus shartlar va Buyurtmani Aksept qilganidan so'ng Shartnoma predmeti bo'ladi.
3. АКЦЕПТ ОФЕРТЫ И ОФОРМЛЕНИЕ ЗАКАЗА	3. OFERTANI AKSEPT QILISH VA BUYURTMANI RASMIYLASHTIRISH
3.1. Организация до Акцепта обязана ознакомиться с действующей редакцией Оферты, Специальными условиями выбранного Продукта и Заказом.	3.1. Tashkilot Akseptdan oldin Ofertaning amaldagi tahriri, tanlangan Mahsulotning maxsus shartlari va Buyurtma bilan tanishishi shart.
3.2. Акцептом признаётся совершение одного или нескольких действий: подписание Заказа на бумаге или электронной подписью; подтверждение Заказа в электронном интерфейсе; оплата выставленного счёта, прямо ссылающегося на Оферту и Продукт; либо начало использования Продукта после получения уведомления, содержащего ссылку на условия и указание на последствия начала использования.	3.2. Quydagi harakatlardan biri yoki bir nechtasini amalga oshirish Aksept hisoblanadi: Buyurtmani qog'ozda yoki elektron imzo bilan imzolash; Buyurtmani elektron interfeysda tasdiqlash; Oferta va Mahsulotga bevosita havola qiluvchi hisobni to'lash; yoxud shartlarga havola va foydalanishni boshlash oqibatlari ko'rsatilgan bildirishnoma olinganidan so'ng Mahsulotdan foydalanishni boshlash.
3.3. Заказ должен позволять однозначно определить Организацию, выбранный Продукт, применимые Специальные условия, тариф, объём, цену, срок, ответственных лиц и иные существенные параметры. Форма Заказа приведена в Приложении № 2.	3.3. Buyurtma Tashkilot, tanlangan Mahsulot, qo'llaniladigan Maxsus shartlar, tarif, hajm, narx, muddat, mas'ul shaxslar va boshqa muhim parametrlarni aniq belgilash imkonini berishi kerak. Buyurtma shakli 2-ilovada keltirilgan.
3.4. Исполнитель вправе запросить документы, подтверждающие полномочия подписанта и реквизиты Организации, а также не активировать Продукт до получения полной и достоверной информации и предусмотренной предоплаты.	3.4. Ijrochi imzolovchining vakolatlari va Tashkilot rekvizitlarini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rash, shuningdek to'liq va ishonchli ma'lumotlar hamda nazarda tutilgan oldindan to'lov olinmaguncha Mahsulotni faollashtirmaslik huquqiga ega.
3.5. При противоречии документов применяется следующий приоритет: (1) индивидуально согласованный и подписанный Заказ; (2) Специальные условия соответствующего Продукта; (3) настоящая Оферта; (4) Документация. Более специальное условие имеет преимущество только в отношении соответствующего Продукта.	3.5. Hujjatlar o'rtasida ziddiyat bo'lsa, quydagi ustuvorlik qo'llaniladi: (1) alohida kelishilgan va imzolangan Buyurtma; (2) tegishli Mahsulotning maxsus shartlari; (3) ushbu Oferta; (4) Hujjatlar. Maxsusroq shart faqat tegishli Mahsulotga nisbatan ustunlikka ega.
4. ПОРЯДОК ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ПРОДУКТОВ И ОКАЗАНИЯ УСЛУГ	4. MAHSULOTLARNI TAQDIM ETISH VA XIZMATLARNI KO'RSATISH TARTIBI
4.1. Исполнитель активирует доступ и/или приступает к оказанию Услуг в срок, установленный Заказом или Специальными условиями, после выполнения Организацией необходимых предварительных действий, включая оплату, предоставление данных и назначение ответственного лица.	4.1. Ijrochi Buyurtma yoki Maxsus shartlarda belgilangan muddatda, Tashkilot to'lov, ma'lumotlarni taqdim etish va mas'ul shaxsni tayinlash kabi zarur dastlabki harakatlarni bajarganidan so'ng kirishni faollashtiradi va/yoki Xizmatlarni ko'rsatishni boshlaydi.

4.2. Если для использования Продукта требуется регистрация Пользователей, интеграция, настройка, импорт данных, установка программного обеспечения либо иное внедрение, порядок и распределение обязанностей определяются Специальными условиями и Заказом.	4.2. Agar Mahsulotdan foydalanish uchun Foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, integratsiya, sozlash, ma'lumotlarni import qilish, dasturiy ta'minotni o'rnatish yoki boshqa joriy etish ishlari zarur bo'lsa, tartib va majburiyatlarning taqsimlanishi Maxsus shartlar va Buyurtma bilan belgilanadi.
4.3. Показатели доступности, допустимая продолжительность технических работ, время реакции технической поддержки и порядок устранения неисправностей устанавливаются отдельно для каждого Продукта. Если соответствующий показатель не установлен, Исполнитель обеспечивает коммерчески разумный уровень доступности без гарантии непрерывной и безошибочной работы.	4.3. Foydalanish imkoniyati ko'rsatkichlari, texnik ishlarning ruxsat etilgan davomiyligi, texnik yordamning javob berish va nosozliklarni bartaraf etish muddati har bir Mahsulot uchun alohida belgilanadi. Tegishli ko'rsatkich belgilanmagan bo'lsa, Ijrochi uzluksiz va xatosiz ishlashni kafolatlamagan holda tijorat nuqtai nazaridan oqilona foydalanish darajasini ta'minlaydi.
4.4. Исполнитель вправе выпускать обновления, изменять интерфейс, техническую архитектуру и отдельные функции Продукта, если это не лишает Организацию основной оплаченной функциональности. Существенное сокращение оплаченной функциональности допускается с предварительным уведомлением и предоставлением разумной альтернативы либо перерасчёта.	4.4. Ijrochi yangilanishlar chiqarish, interfeys, texnik arxitektura va Mahsulotning ayrim funksiyalarini o'zgartirish huquqiga ega, agar bu Tashkilotni to'langan asosiy funksional imkoniyatlardan mahrum qilmasa. To'langan funksional imkoniyatlarni sezilarli qisqartirish oldindan xabar berish va oqilona muqobil yoki qayta hisob-kitob taqdim etish sharti bilan yo'l qo'yiladi.
4.5. Плановые технические работы по возможности проводятся в периоды наименьшей нагрузки. При аварийной угрозе информационной безопасности Исполнитель вправе незамедлительно ограничить доступ в объёме, необходимом для устранения угрозы.	4.5. Rejalashtirilgan texnik ishlar imkon qadar eng kam yuklama davrida o'tkaziladi. Axborot xavfsizligiga favqulodda tahdid yuzaga kelganda Ijrochi tahdidni bartaraf etish uchun zarur hajmda kirishni darhol cheklash huquqiga ega.
4.6. Если Заказом предусмотрено оформление акта оказанных услуг, Исполнитель направляет его в бумажной или электронной форме. При отсутствии мотивированных письменных возражений в течение 5 (пяти) Рабочих дней с даты получения услуги считаются принятыми в полном объёме, если иной срок не установлен Заказом.	4.6. Agar Buyurtmada ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasini rasmiylashtirish nazarda tutilgan bo'lsa, Ijrochi uni qog'oz yoki elektron shaklda yuboradi. Buyurtmada boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, olingan kundan boshlab 5 (besh) Ish kuni ichida asoslantirilgan yozma e'tirozlar bo'lmasa, xizmatlar to'liq qabul qilingan hisoblanadi.
4.7. Для функционирования Продукта могут использоваться сервисы третьих лиц. Их перечень и влияние на работу Продукта при существенном значении указываются в Специальных условиях. Исполнитель не отвечает за сбои третьих лиц вне разумного контроля Исполнителя, но принимает разумные меры для восстановления работы.	4.7. Mahsulotning ishlashi uchun uchinchi shaxslar servislaridan foydalanilishi mumkin. Ularning ro'yxati va Mahsulot ishiga ta'siri muhim bo'lsa, Maxsus shartlarda ko'rsatiladi. Ijrochi oqilona nazoratidan tashqaridagi uchinchi shaxslar uzilishlari uchun javob bermaydi, biroq ishni tiklash uchun oqilona choralar ko'radi.
5. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ ИСПОЛНИТЕЛЯ	5. IJROCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI
5.1. Исполнитель обязан предоставить оплаченный Продукт и Услуги в соответствии с Договором, применять разумные технические и организационные меры защиты, поддерживать каналы обращения и информировать Организацию о существенных обстоятельствах, влияющих на использование Продукта.	5.1. Ijrochi to'langan Mahsulot va Xizmatlarni Shartnomaga muvofiq taqdim etishi, oqilona texnik va tashkiliy himoya choralari qo'llashi, murojaat kanallarini ta'minlashi hamda Mahsulotdan foydalanishga ta'sir qiluvchi muhim holatlar haqida Tashkilotni xabardor qilishi shart.
5.2. Исполнитель вправе привлекать третьих лиц к исполнению Договора, оставаясь ответственным перед Организацией за их действия как за свои, если иное не следует из характера стороннего сервиса, прямо указанного в Специальных условиях.	5.2. Ijrochi Shartnomani bajarishga uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega va, Maxsus shartlarda bevosita ko'rsatilgan uchinchi tomon servisining xususiyatidan boshqacha kelib chiqmasa, ularning harakatlari uchun Tashkilot oldida o'z harakatlaridek javobgar bo'lib qoladi.
5.3. Исполнитель вправе проверять соблюдение согласованного объёма использования, количества Пользователей, лицензий, операций, хранилища и иных лимитов, не получая доступа к содержанию данных сверх необходимого для такой проверки.	5.3. Ijrochi foydalanishning kelishilgan hajmi, Foydalanuvchilar, litsenziyalar, operatsiyalar, saqlash joyi va boshqa limitlarga rioya etilishini, bunday tekshiruv uchun zarur bo'lganidan ortiq ma'lumot mazmuniga kirmagan holda tekshirish huquqiga ega.
5.4. Исполнитель вправе временно ограничить доступ при просрочке оплаты, нарушении безопасности, незаконном использовании, превышении оплаченного объёма либо ином существенном нарушении Договора, по возможности предварительно уведомив Организацию и предоставив срок для устранения нарушения.	5.4. Ijrochi to'lov kechiktirilganda, xavfsizlik buzilganda, noqonuniy foydalanilganda, to'langan hajm oshirilganda yoki Shartnoma boshqacha jiddiy buzilganda, imkon qadar Tashkilotni oldindan xabardor qilib va buzilishni bartaraf etish uchun muddat berib, kirishni vaqtincha cheklash huquqiga ega.
5.5. Исполнитель вправе направлять Организации сервисные, технические и юридически значимые уведомления по контактному данным, указанным в Заказе или учётной записи.	5.5. Ijrochi Tashkilotga Buyurtma yoki hisob qaydnomasida ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari orqali servis, texnik va yuridik ahamiyatga ega bildirishnomalarni yuborish huquqiga ega.
6. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ	6. TASHKILOTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI
6.1. Организация обязана своевременно оплачивать Продукты и Услуги, предоставлять достоверные сведения, выполнять технические требования, назначать ответственных лиц и обеспечивать законность действий своих Пользователей.	6.1. Tashkilot Mahsulotlar va Xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lashi, ishonchli ma'lumotlar taqdim etishi, texnik talablarga rioya qilishi, mas'ul shaxslarni tayinlashi va o'z Foydalanuvchilari harakatlarining qonuniyligini ta'minlashi shart.

6.2. Организация обеспечивает конфиденциальность учётных данных, не допускает их передачи неуполномоченным лицам и незамедлительно уведомляет Исполнителя об утрате, компрометации или несанкционированном использовании доступа.	6.2. Tashkilot hisob ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlaydi, ularni vakolatsiz shaxslarga berishga yo'l qo'ymaydi va kirish ma'lumotlari yo'qolishi, oshkor bo'lishi yoki ruxsatsiz ishlatilishi haqida Ijrochini darhol xabardor qiladi.
6.3. Организация не вправе копировать, модифицировать, декомпилировать, обходить технические ограничения, осуществлять нагрузочные проверки без согласия Исполнителя, использовать Продукт для распространения вредоносного кода, спама, незаконного контента либо нарушения прав третьих лиц.	6.3. Tashkilot Ijrochining rozilgisiz Mahsulotni nusxalash, o'zgartirish, dekompilyatsiya qilish, texnik cheklovlarini chetlab o'tish, yuklama sinovlarini o'tkazish, shuningdek Mahsulotdan zararli kod, spam, noqonuniy kontent tarqatish yoki uchinchi shaxslar huquqlarini buzish uchun foydalanishga haqli emas.
6.4. Организация самостоятельно обеспечивает совместимые устройства, программное обеспечение, доступ к сети Интернет, локальную информационную безопасность и резервное копирование данных, которые хранятся только на её оборудовании, если иное не установлено для конкретного Продукта.	6.4. Tashkilot, muayyan Mahsulot uchun boshqacha belgilanmagan bo'lsa, mos qurilmalar, dasturiy ta'minot, Internetga kirish, mahalliy axborot xavfsizligi va faqat o'z uskunasi saqlanadigan ma'lumotlarning xazina nusxasini mustaqil ta'minlaydi.
6.5. Организация вправе получать информацию о выбранных Продуктах, обращаться в техническую поддержку, требовать устранения подтверждённых недостатков и отказаться от отдельного Продукта в порядке, установленном разделом 13 и применимыми Специальными условиями.	6.5. Tashkilot tanlangan Mahsulotlar haqida ma'lumot olish, texnik yordamga murojaat qilish, tasdiqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilish va 13-bo'lim hamda qo'llaniladigan Maxsus shartlarda belgilangan tartibda alohida Mahsulotdan voz kechish huquqiga ega.
6.6. Организация обязана уведомлять Исполнителя об изменении реквизитов, контактных данных и полномочий ответственных лиц не позднее 3 (трёх) Рабочих дней с даты изменения.	6.6. Tashkilot rekvizitlar, aloqa ma'lumotlari va mas'ul shaxslar vakolatlari o'zgarganligi haqida o'zgarish sanasidan boshlab 3 (uch) Ish kunidan kechiktirmay Ijrochini xabardor qilishi shart.
7. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ	7. INTELLEKTUAL MULK
7.1. Исключительные права на Продукты, их программный код, базы данных, дизайн, товарные знаки, Документацию и иные результаты интеллектуальной деятельности принадлежат Исполнителю либо соответствующим правообладателям.	7.1. Mahsulotlar, ularning dasturiy kodi, ma'lumotlar bazalari, dizayni, tovar belgilari, Hujjatlar va boshqa intellektual faoliyat natijalariga mutlaq huquqlar Ijrochi yoki tegishli huquq egalari tegishli.
7.2. Договор не передаёт Организации исключительные права. Организация получает только прямо предусмотренное право использования на срок и в объёме выбранного Тарифа.	7.2. Shartnoma Tashkilotga mutlaq huquqlarni o'tkazmaydi. Tashkilot faqat tanlangan Tarif muddati va hajmida bevosita nazarda tutilgan foydalanish huquqini oladi.
7.3. Права на данные и материалы, загруженные Организацией или Пользователями, сохраняются за соответствующими правообладателями. Организация предоставляет Исполнителю право технически обрабатывать такие материалы исключительно для исполнения Договора и гарантирует законность их размещения.	7.3. Tashkilot yoki Foydalanuvchilar yuklagan ma'lumotlar va materiallarga huquqlar tegishli huquq egalari saqlanadi. Tashkilot Ijrochiga bunday materiallarni faqat Shartnomani bajarish maqsadida texnik qayta ishlash huquqini beradi va ularni joylashtirish qonuniyligini kafolatlaydi.
7.4. Обратная связь, предложения и сообщения об ошибках могут безвозмездно использоваться Исполнителем для развития Продуктов без раскрытия конфиденциальной информации Организации.	7.4. Fikr-mulohaza, takliflar va xatolar haqidagi xabarlar Tashkilotning maxfiy ma'lumotlarini oshkor qilmagan holda Mahsulotlarni rivojlantirish uchun Ijrochi tomonidan bepul ishlatilishi mumkin.
8. ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ	8. AXBOROT XAVFSIZLIGI
8.1. Исполнитель применяет технические и организационные меры, соответствующие характеру Продукта, обрабатываемых данных и применимым требованиям законодательства Республики Узбекистан.	8.1. Ijrochi Mahsulot xususiyati, qayta ishlanadigan ma'lumotlar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining qo'llaniladigan talablariga mos texnik va tashkiliy choralarini qo'llaydi.
8.2. Конкретные требования к паролям, разграничению ролей, журналированию, резервному копированию, шифрованию, интеграциям и реагированию на инциденты определяются Специальными условиями соответствующего Продукта.	8.2. Parollar, rollarni ajratish, jurnallash, xazina nusxa, shifrlash, integratsiyalar va hodisalarga javob berish bo'yicha aniq talablar tegishli Mahsulotning maxsus shartlari bilan belgilanadi.
8.3. Сторона, обнаружившая инцидент, способный повлиять на безопасность Продукта или данных другой Стороны, без неоправданной задержки уведомляет другую Сторону и сотрудничает при локализации и устранении последствий.	8.3. Mahsulot yoki boshqa Tomon ma'lumotlari xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hodisani aniqlagan Tomon asossiz kechiktirmasdan boshqa Tomonni xabardor qiladi va oqibatlarni cheklash hamda bartaraf etishda hamkorlik qiladi.
8.4. Организация не должна проводить сканирование уязвимостей, тестирование на проникновение или иные проверки безопасности без предварительного письменного согласования с Исполнителем.	8.4. Tashkilot Ijrochi bilan oldindan yozma ravishda kelishmasdan zaifliklarni skanerlash, kirib borish sinovlari yoki boshqa xavfsizlik tekshiruvlarini o'tkazmasligi kerak.
9. ПЕРСОНАЛЬНЫЕ ДАННЫЕ	9. SHAXSIY MA'LUMOTLAR
9.1. Каждая Сторона обрабатывает персональные данные в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и несёт ответственность за операции, цели и средства обработки, которые определяет самостоятельно.	9.1. Har bir Tomon shaxsiy ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qayta ishlaydi va mustaqil belgilaydigan qayta ishlash operatsiyalari, maqsadlari va vositalari uchun javob beradi.

9.2. Если Исполнитель обрабатывает персональные данные от имени Организации, Организация определяет законные цели и объём обработки, обеспечивает наличие необходимых правовых оснований и уведомлений субъектам, а Исполнитель действует в пределах документированных поручений Организации и Договора.	9.2. Agar Ijrochi Tashkilot nomidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlasa, Tashkilot qayta ishlashning qonuniy maqsadlari va hajmini belgilaydi, zarur huquqiy asoslar va subyektlarni xabardor qilishni ta'minlaydi, Ijrochi esa Tashkilotning hujjatlashtirilgan topshiriqlari va Shartnoma doirasida harakat qiladi.
9.3. Категории субъектов и данных, цели, операции, срок хранения, место размещения, условия передачи третьим лицам и порядок удаления либо возврата данных устанавливаются в Специальных условиях каждого Продукта.	9.3. Subyektlar va ma'lumotlar toifalari, maqsadlar, operatsiyalar, saqlash muddati, joylashtirish manzili, uchinchi shaxslarga berish shartlari hamda ma'lumotlarni o'chirish yoki qaytarish tartibi har bir Mahsulotning maxsus shartlarida belgilanadi.
9.4. Организация гарантирует, что передаваемые данные достоверны, получены законно и могут быть обработаны Исполнителем в согласованных целях. Организация своевременно сообщает об отзыве согласия, возражении субъекта или необходимости исправления и удаления данных.	9.4. Tashkilot berilayotgan ma'lumotlar ishonchli, qonuniy olingan va Ijrochi tomonidan kelishilgan maqsadlarda qayta ishlalishi mumkinligini kafolatlaydi. Tashkilot rozilik qaytarib olingani, subyekt e'tirozi yoki ma'lumotlarni tuzatish va o'chirish zarurati haqida o'z vaqtida xabar beradi.
9.5. Исполнитель обеспечивает конфиденциальность персональных данных, ограничивает доступ уполномоченными лицами и по прекращении соответствующего Заказа действует с данными в порядке, установленном Специальными условиями и законодательством.	9.5. Ijrochi shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi, kirishni vakolatli shaxslar bilan cheklaydi va tegishli Buyurtma tugatilgandan so'ng ma'lumotlar bilan Maxsus shartlar hamda qonunchilikda belgilangan tartibda ish yuritadi.
10. СТОИМОСТЬ И ПОРЯДОК РАСЧЁТОВ	10. NARX VA HISOB-KITOB TARTIBI
10.1. Стоимость, валюта, налоги, расчётная единица, периодичность и срок оплаты определяются Заказом, применимыми Специальными условиями и выставленным счётом. Если срок не указан, оплата производится в течение 10 (десяти) календарных дней с даты счёта.	10.1. Narx, valyuta, soliqlar, hisob birligi, to'lov davriyligi va muddati Buyurtma, qo'llaniladigan Maxsus shartlar hamda taqdim etilgan hisob bilan belgilanadi. Muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov hisob sanasidan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni ichida amalga oshiriladi.
10.2. Платёжное обязательство считается исполненным с момента зачисления денежных средств на расчётный счёт Исполнителя. Банковские комиссии плательщика оплачиваются Организацией.	10.2. Pul mablag'lari Ijrochining hisob raqamiga tushgan paytdan boshlab to'lov majburiyati bajarilgan hisoblanadi. To'lovchining bank komissiyalari Tashkilot tomonidan to'lanadi.
11. ГАРАНТИИ И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ	11. KAFOLATLAR VA JAVOBGARLIK
11.1. Стороны несут ответственность за неисполнение или ненадлежащее исполнение обязательств в соответствии с Договором и законодательством Республики Узбекистан.	11.1. Tomonlar majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.
11.2. Исполнитель гарантирует, что обладает необходимыми правами для предоставления Продукта. Иные гарантии, включая соответствие Продукта субъективным ожиданиям Организации или достижение конкретного экономического результата, не предоставляются, если они прямо не закреплены в Специальных условиях.	11.2. Ijrochi Mahsulotni taqdim etish uchun zarur huquqlarga ega ekanligini kafolatlaydi. Mahsulotning Tashkilotning subyektiv kutishlariga muvofiqligi yoki muayyan iqtisodiy natijaga erishish kabi boshqa kafolatlar, agar Maxsus shartlarda bevosita belgilanmagan bo'lsa, berilmaydi.
11.3. Исполнитель не отвечает за невозможность использования, вызванную оборудованием, программами, каналами связи или действиями Организации и Пользователей, незаконными материалами, действиями третьих лиц вне контроля Исполнителя либо несоблюдением Документации.	11.3. Ijrochi Tashkilot va Foydalanuvchilarning uskunalari, dasturlari, aloqa kanallari yoki harakatlari, noqonuniy materiallar, Ijrochi nazoratidan tashqaridagi uchinchi shaxslar harakatlari yoki Hujjatlarga rioya qilmaslik tufayli foydalanish imkonsizligi uchun javob bermaydi.
11.4. Сторона, узнавшая о возможном убытке, обязана принять разумные меры к его уменьшению и своевременно уведомить другую Сторону.	11.4. Ehtimoliy zarar haqida bilgan Tomon uni kamaytirish uchun oqilona choralar ko'rishi va boshqa Tomonni o'z vaqtida xabardor qilishi shart.
11.5. Если иное не установлено обязательной нормой закона или Заказом, совокупная ответственность Исполнителя по конкретному Продукту ограничивается суммой, фактически уплаченной за этот Продукт за 12 месяцев, предшествующих событию, повлекшему ответственность. Ограничение не применяется к умышленному нарушению, нарушению исключительных прав, конфиденциальности и обязанностей по защите персональных данных в случаях, когда такое ограничение запрещено законом.	11.5. Agar qonunning majburiy normasi yoki Buyurtmada boshqacha belgilanmagan bo'lsa, Ijrochining muayyan Mahsulot bo'yicha jami javobgarligi javobgarlikka sabab bo'lgan hodisadan oldingi 12 oyda ushbu Mahsulot uchun amalda to'langan summa bilan cheklanadi. Qasddan buzilish, mutlaq huquqlar, maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish majburiyatlari buzilishiga nisbatan qonun bunday cheklovni taqiqlagan hollarda cheklov qo'llanilmaydi.
11.6. Неустойки, специальные компенсации и иные меры ответственности, относящиеся к особенностям конкретного Продукта, применяются только если прямо предусмотрены его Специальными условиями или Заказом.	11.6. Muayyan Mahsulot xususiyatlariga oid neustoyka, maxsus kompensatsiya va boshqa javobgarlik choralari faqat uning Maxsus shartlari yoki Buyurtmada bevosita nazarda tutilgan bo'lsa qo'llash mumkin.
12. КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ	12. MAXFIYLIK
12.1. Стороны сохраняют конфиденциальность непубличной коммерческой, технической, финансовой и иной информации,	12.1. Tomonlar Shartnoma munosabati bilan olingan ommaga ochiq bo'lmagan tijorat, texnik, moliyaviy va boshqa ma'lumotlarning

полученной в связи с Договором, и используют её только для исполнения Договора.	maxfiyligini saqlaydi va ulardan faqat Shartnomani bajarish uchun foydalanadi.
12.2. Обязанность не распространяется на информацию, которая была известна получателю законно, стала общедоступной не вследствие нарушения, получена от третьего лица без обязанности конфиденциальности либо подлежит раскрытию по закону. При обязательном раскрытии получатель, если это разрешено, предварительно уведомляет другую Сторону.	12.2. Majburiyat oluvchiga qonuniy ravishda avvaldan ma'lum bo'lgan, buzilish natijasida bo'lmagan holda ommaga ochiq bo'lgan, maxfiylik majburiyatisiz uchinchi shaxsdan olingan yoki qonunga ko'ra oshkor qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga tatbiq etilmaydi. Majburiy oshkor qilishda oluvchi, bunga ruxsat etilsa, boshqa Tomonni oldindan xabardor qiladi.
12.3. Сам факт заключения Договора и общее наименование используемого Продукта не являются конфиденциальными. Использование наименования и товарного знака другой Стороны в рекламе или публичных материалах допускается только с её предварительного согласия.	12.3. Shartnoma tuzilganligi va foydalanilayotgan Mahsulotning umumiy nomi maxfiy hisoblanmaydi. Boshqa Tomon nomi va tovar belgisidan reklama yoki ommaviy materiallarda foydalanish faqat uning oldindan roziligi bilan yo'l qo'yiladi.
13. СРОК ДЕЙСТВИЯ И ПРЕКРАЩЕНИЕ	13. AMAL QILISH MUDDATI VA TUGATISH
13.1. Договор вступает в силу для Организации с момента Акцепта и действует до прекращения всех действующих Заказов и полного исполнения расчётных обязательств.	13.1. Shartnoma Tashkilot uchun Aksept paytidan kuchga kiradi va barcha amaldagi Buyurtmalar tugatilishi hamda hisob-kitob majburiyatlari to'liq bajarilguniga qadar amal qiladi.
13.2. Срок использования каждого Продукта и порядок продления определяются соответствующим Заказом и Специальными условиями. Автоматическое продление допускается только при прямом указании на него и порядке уведомления об отказе от продления.	13.2. Har bir Mahsulotdan foydalanish muddati va uzaytirish tartibi tegishli Buyurtma va Maxsus shartlar bilan belgilanadi. Avtomatik uzaytirish faqat bu haqda bevosita ko'rsatilgan va uzaytirishdan voz kechish haqida xabardor qilish tartibi belgilangan taqdirda yo'l qo'yiladi.
13.3. Организация вправе отказаться от отдельного Продукта, направив уведомление не менее чем за 30 (тридцать) календарных дней, если иной срок не установлен Заказом. Прекращение отдельного Заказа не прекращает Договор и иные Заказы.	13.3. Agar Buyurtmada boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, Tashkilot kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin xabarnoma yuborib alohida Mahsulotdan voz kechish huquqiga ega. Alohida Buyurtmaning tugatilishi Shartnoma va boshqa Buyurtmalarni tugatmaydi.
13.4. Исполнитель вправе прекратить отдельный Заказ с уведомлением не менее чем за 30 (тридцать) календарных дней, вернув неиспользованный остаток предоплаты, если прекращение не связано с нарушением Организации.	13.4. Ijrochi alohida Buyurtmani kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin xabardor qilib va, agar tugatish Tashkilotning buzilishi bilan bog'liq bo'lmasa, foydalanilmagan oldindan to'lov qoldig'ini qaytarib tugatish huquqiga ega.
13.5. Сторона вправе прекратить соответствующий Заказ досрочно при существенном нарушении другой Стороной, если нарушение не устранено в течение 10 (десяти) календарных дней после письменного требования, либо немедленно, если нарушение неустранимо, использование незаконно, создаёт угрозу безопасности или другая Сторона ликвидирована.	13.5. Agar boshqa Tomon jiddiy buzilishni yozma talabdan keyin 10 (o'n) kalendar kuni ichida bartaraf etmasa, Tomon tegishli Buyurtmani muddatidan oldin tugatish huquqiga ega; buzilish bartaraf etib bo'lmaydigan, foydalanish noqonuniy, xavfsizlikka tahdid soladigan yoki boshqa Tomon tugatilgan bo'lsa, Buyurtma darhol tugatilishi mumkin.
13.6. При прекращении Заказа доступ к соответствующему Продукту прекращается, задолженность подлежит оплате, а выгрузка, возврат, хранение или удаление данных осуществляются в порядке и сроки, установленные Специальными условиями. Организация обязана заблаговременно выгрузить доступные ей данные.	13.6. Buyurtma tugatilganda tegishli Mahsulotga kirish to'xtatiladi, qarzdorlik to'lanishi lozim, ma'lumotlarni yuklab olish, qaytarish, saqlash yoki o'chirish esa Maxsus shartlarda belgilangan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi. Tashkilot o'ziga mavjud ma'lumotlarni oldindan yuklab olishi shart.
13.7. Форма уведомления об отказе от Продукта приведена в Приложении № 4. Уведомление может быть направлено и в иной форме, если оно однозначно определяет Организацию, Продукт, Заказ и дату прекращения.	13.7. Mahsulotdan voz kechish haqidagi xabarnoma shakli 4-ilovada keltirilgan. Agar xabarnoma Tashkilot, Mahsulot, Buyurtma va tugatish sanasini aniq belgilasa, u boshqa shaklda ham yuborilishi mumkin.
14. ФОРС-МАЖОР	14. FORS-MAJOR
14.1. Сторона освобождается от ответственности за неисполнение вследствие чрезвычайных и непредотвратимых обстоятельств вне её разумного контроля, включая стихийные бедствия, военные действия, массовые сбои инфраструктуры, запреты государственных органов и иные обстоятельства непреодолимой силы.	14.1. Tomon o'zining oqilona nazoratidan tashqaridagi favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan holatlar, jumladan tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, infratuzilmaning ommaviy uzilishlari, davlat organlari taqiqlari va boshqa yengib bo'lmaz kuch holatlari oqibatida majburiyatni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.
14.2. Затронутая Сторона уведомляет другую Сторону в разумный срок, принимает меры к уменьшению последствий и по запросу предоставляет подтверждение компетентного органа, если такое подтверждение может быть получено.	14.2. Ta'sir ko'rgan Tomon boshqa Tomonni oqilona muddatda xabardor qiladi, oqibatlarni kamaytirish choralarini ko'radi va, agar olish mumkin bo'lsa, so'rovga ko'ra vakolatli organ tasdig'ini taqdim etadi.
14.3. Если форс-мажор продолжается более 60 (шестидесяти) календарных дней и существенно препятствует использованию конкретного Продукта, любая Сторона вправе прекратить соответствующий Заказ без штрафа, произведя расчёты за фактически исполненное.	14.3. Agar fors-major 60 (oltmish) kalendar kundan ortiq davom etsa va muayyan Mahsulotdan foydalanishga sezilarli to'sqinlik qilsa, har bir Tomon amalda bajarilgan qism bo'yicha hisob-kitob qilib, tegishli Buyurtmani jarimasiz tugatish huquqiga ega.

15. УВЕДОМЛЕНИЯ И РАЗРЕШЕНИЕ СПОРОВ	15. BILDIRISHNOMALAR VA NIZOLARNI HAL QILISH
15.1. Юридически значимые сообщения направляются по адресам и контактам, указанным в Заказе и реквизитах, посредством заказной почты, курьера, электронной почты, системы электронного документооборота либо интерфейса Продукта, позволяющего зафиксировать отправку.	15.1. Yuridik ahamiyatga ega xabarlar Buyurtma va rekvizitlarda ko'rsatilgan manzil hamda aloqa ma'lumotlariga buyurtma pochta, kuryer, elektron pochta, elektron hujjat aylanishi tizimi yoki yuborilganlikni qayd etish imkonini beruvchi Mahsulot interfeysi orqali yuboriladi.
15.2. Электронное сообщение считается полученным на следующий Рабочий день после отправки при отсутствии уведомления о недоставке; сообщение в интерфейсе — с момента его размещения и направления уведомления Пользователю; почтовое — по данным доставки.	15.2. Elektron xabar yetkazilmaganligi haqida bildirishnoma bo'lmasa, yuborilgandan keyingi Ish kuni olingan hisoblanadi; interfeysdagi xabar — joylashtirilgan va Foydalanuvchiga bildirishnoma yuborilgan paytdan; pochta xabari — yetkazib berish ma'lumotlariga ko'ra olingan hisoblanadi.
15.3. Споры разрешаются путём переговоров и обязательного претензионного порядка. Срок ответа на претензию — 15 (пятнадцать) календарных дней с даты получения, если иной срок не установлен законом.	15.3. Nizolar muzokaralar va majburiy talabnoma tartibida hal qilinadi. Agar qonunda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, talabnomaga javob muddati olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kunni tashkil etadi.
15.4. Неурегулированный спор подлежит рассмотрению компетентным судом Республики Узбекистан по месту нахождения Исполнителя, если императивными нормами не установлена иная подсудность.	15.4. Hal qilinmagan nizo, agar majburiy normalarda boshqa sudlovlik belgilanmagan bo'lsa, Ijrochi joylashgan yerdagi O'zbekiston Respublikasining vakolatli sudida ko'rib chiqiladi.
16. ИЗМЕНЕНИЕ ОФЕРТЫ И СПЕЦИАЛЬНЫХ УСЛОВИЙ	16. OFERTA VA MAXSUS SHARTLARNI O'ZGARTIRISH
16.1. Исполнитель вправе изменить Оферту, опубликовав новую редакцию и уведомив Организацию не менее чем за 15 (пятнадцать) календарных дней. Изменения применяются с указанной даты к будущему исполнению и не уменьшают уже оплаченный объём без основания, предусмотренного пунктом 4.4.	16.1. Ijrochi Ofertaning yangi tahririni e'lon qilib va Tashkilotni kamida 15 (o'n besh) kalendar kun oldin xabardor qilib Ofertani o'zgartirish huquqiga ega. O'zgartirishlar ko'rsatilgan sanadan kelgusi ijroga tatbiq etiladi va 4.4-bandda nazarda tutilgan asossiz oldindan to'langan hajmni kamaytirmaydi.
16.2. Изменения, необходимые для исполнения закона, устранения уязвимости или предотвращения существенного вреда, могут вступить в силу немедленно с последующим уведомлением.	16.2. Qonunni bajarish, zaiflikni bartaraf etish yoki jiddiy zararning oldini olish uchun zarur o'zgartirishlar keyinchalik xabardor qilish bilan darhol kuchga kirishi mumkin.
16.3. Если Организация не согласна с изменением, существенно ухудшающим условия будущего периода, она вправе до даты вступления изменения в силу отказаться от соответствующего Продукта без штрафа. Продолжение использования после этой даты означает согласие с изменёнными условиями.	16.3. Agar Tashkilot kelgusi davr shartlarini sezilarli yomonlashtiruvchi o'zgartirishga rozi bo'lmasa, o'zgartirish kuchga kirishidan oldin tegishli Mahsulotdan jarimasiz voz kechish huquqiga ega. Ushbu sanadan keyin foydalanishni davom ettirish o'zgartirilgan shartlarga rozilikni anglatadi.
17. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ	17. YAKUNIY QOIDALAR
17.1. Недействительность отдельного положения не влияет на действительность остальных положений. Стороны заменяют недействительное условие законным, максимально близким по экономическому смыслу.	17.1. Alohida qoidaning haqiqiy emasligi boshqa qoidalarning haqiqiylikiga ta'sir qilmaydi. Tomonlar haqiqiy bo'lmagan shartni iqtisodiy mazmuniga imkon qadar yaqin bo'lgan qonuniy shart bilan almashtiradi.
17.2. Неосуществление права либо задержка в его осуществлении не означает отказ от права. Уступка Организацией прав и обязанностей допускается только с письменного согласия Исполнителя. Исполнитель вправе передать Договор правопреемнику либо аффилированному лицу с предварительным уведомлением Организации.	17.2. Huquqni amalga oshirmaslik yoki uni amalga oshirishdagi kechikish huquqdan voz kechishni anglatmaydi. Tashkilotning huquq va majburiyatlarini o'tkazishi faqat Ijrochining yozma roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Ijrochi Tashkilotni oldindan xabardor qilib Shartnomani huquqiy voris yoki affilangan shaxsga o'tkazish huquqiga ega.
17.3. Оферта составлена на русском и узбекском языках. Оба текста имеют одинаковую юридическую силу. При выявлении расхождений Стороны руководствуются смыслом условий в совокупности, а до согласования уточнения — русским текстом.	17.3. Oferta rus va o'zbek tillarida tuzilgan. Har ikkala matn bir xil yuridik kuchga ega. Tafovut aniqlansa, Tomonlar shartlarning umumiy mazmuniga amal qiladi, aniqlik kelishilgunga qadar esa rus tilidagi matn qo'llaniladi.
17.4. Приложения к Договору: Приложение № 1 — Специальные условия цифрового продукта eMaktab; Приложение № 2 — Форма Заказа на Продукт; Приложение № 3 — Типовая форма Специальных условий нового Продукта; Приложение № 4 — Форма уведомления о прекращении отдельного Заказа.	17.4. Shartnomaga ilovalar: 1-ilova — eMaktab raqamli mahsulotining maxsus shartlari; 2-ilova — Mahsulotga Buyurtma shakli; 3-ilova — yangi Mahsulotning maxsus shartlari namunaviy shakli; 4-ilova — alohida Buyurtmani tugatish haqida xabarnoma shakli.
18. РЕКВИЗИТЫ ИСПОЛНИТЕЛЯ	18. IJROCHINING REKVIZITLARI
Исполнитель: ИП ООО «KUNDALIK» Адрес: Республика Узбекистан, г. Ташкент, Чиланзарский район, проспект Бунёдкор, 42/1 Расчётный счёт: 2020 8000 4008 6547 6001 Банк: ЧАКБ «DAVR BANK», Яккасарайский филиал МФО: 01069; ИНН: 305 440 540 E-mail: team@emaktab.uz	Ijrochi: «KUNDALIK» MChJ XK Манзил: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor prospekti, 42/1 Hisob raqami: 2020 8000 4008 6547 6001 Bank: «DAVR BANK» XATB, Yakkasaroy filiali MFO: 01069; STIR: 305 440 540 E-mail: team@emaktab.uz

Телефон бухгалтерии: +998 90 931 22 12	Buxgalteriya telefoni: +998 90 931 22 12
Официальный адрес публикации Оферты: [указать]	Ofertani e'lon qilishning rasmiy manzili: [ko'rsatilsin]

ПРИЛОЖЕНИЕ № 1 К ОФЕРТЕ <i>Специальные условия цифрового продукта АИС «eMaktab»</i>	OFERTAGA 1-ILOVA <i>AAT «eMaktab» raqamli mahsulotining maxsus shartlari</i>
Настоящие Специальные условия являются неотъемлемой частью Публичной оферты и применяются только к цифровому продукту «eMaktab». Термины, не определённые здесь, имеют значения, установленные Офертой.	Ushbu Maxsus shartlar Ommaviy ofertaning ajralmas qismi bo'lib, faqat «eMaktab» raqamli mahsulotiga nisbatan qo'llaniladi. Bu yerda ta'riflanmagan atamalar Ofe rtada belgilangan ma'noga ega.
1. ОПИСАНИЕ ПРОДУКТА	1. MAHSULOT TAVSIFI
1.1. АИС «eMaktab» (eMaktab) — автоматизированная информационная система, предназначенная для электронного сопровождения образовательного процесса, взаимодействия образовательной организации, работников, обучающихся и их родителей/законных представителей.	1.1. AAT «eMaktab» (eMaktab) — ta'lim jarayonini elektron tarzda qo'llab-quvvatlash, ta'lim tashkiloti, xodimlar, o'quvchilar va ularning ota-onalari/qonuniy vakillari o'rtasidagi hamkorlik uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi.
1.2. Адрес веб-версии: https://www.emaktab.uz. Дополнительные интерфейсы, мобильные приложения и адреса поддержки указываются в Документации и Заказе.	1.2. Veb-versiya manzili: https://www.emaktab.uz. Qo'shimcha interfeyslar, mobil ilovalar va yordam manzillari Hujjatlar hamda Buyurtmada ko'rsatiladi.
1.3. Основные категории Пользователей: работники Организации, включая Администратора; обучающиеся; родители и иные законные представители обучающихся.	1.3. Foydalanuvchilarning asosiy toifalari: Tashkilot xodimlari, shu jumladan Administrator; o'quvchilar; o'quvchilarning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari.
1.4. Профили Пользователей и их права разграничиваются по ролям. В зависимости от подключённого функционала могут использоваться профили сотрудника, учителя-предметника, классного руководителя, редактора, Администратора, обучающегося и родителя/законного представителя.	1.4. Foydalanuvchi profillari va ularning huquqlari rollar bo'yicha ajratiladi. Ulangan funksional imkoniyatlarga qarab xodim, fan o'qituvchisi, sinf rahbari, tahrirchi, Administrator, o'quvchi va ota-ona/qonuniy vakil profillaridan foydalanilishi mumkin.
2. ФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ И ТАРИФЫ	2. FUNKSIONAL IMKONIYATLAR VA TARIFLAR
2.1. Сервис «Школа» предоставляет электронные средства поддержки и сопровождения образовательного процесса и инструменты взаимодействия, формирующие информационно-образовательное пространство конкретной Организации.	2.1. «Maktab» servisi ta'lim jarayonini elektron tarzda qo'llab-quvvatlash va hamrohlik qilish vositalari hamda muayyan Tashkilotning axborot-ta'lim makonini shakllantiruvchi o'zaro hamkorlik vositalarini taqdim etadi.
2.2. «Электронный дневник» может включать расписание, сведения об успеваемости и посещаемости, домашние задания и иную образовательную информацию в пределах прав соответствующего Профиля.	2.2. «Elektron kundalik» tegishli Profil huquqlari doirasida dars jadvali, o'zlashtirish va davomat ma'lumotlari, uy vazifalari hamda boshqa ta'lim ma'lumotlarini o'z ichiga olishi mumkin.
2.3. «Мобильное приложение» предоставляет функции Электронного дневника и иные возможности, доступные на мобильных устройствах.	2.3. «Mobil ilova» Elektron kundalik funksiyalari va mobil qurilmalarda mavjud boshqa imkoniyatlarni taqdim etadi.
2.4. Функция «Отключение рекламы» исключает отображение рекламной информации в предусмотренных интерфейсах на период оплаченного доступа.	2.4. «Reklamani o'chirish» funksiyasi to'langan kirish davrida nazarda tutilgan interfeyslarda reklama axborotining ko'rsatilishini istisno qiladi.
2.5. Тариф «Стандарт» включает Электронный дневник. Тариф «Всё включено» включает Электронный дневник, Мобильное приложение и Отключение рекламы. Исполнитель вправе вводить иные тарифы; их состав и цена указываются в Заказе и актуальной тарифной документации.	2.5. «Standart» tarifi Elektron kundalikni o'z ichiga oladi. «Hammasi ichida» tarifi Elektron kundalik, Mobil ilova va Reklamani o'chirishni o'z ichiga oladi. Ijrochi boshqa tariflarni joriy etishi mumkin; ularning tarkibi va narxi Buyurtma hamda amaldagi tarif hujjatlarida ko'rsatiladi.
3. ПОДКЛЮЧЕНИЕ И УЧЁТНЫЕ ЗАПИСИ	3. ULASH VA HISOB QAYDNOMALARI
3.1. Ответственное лицо Организации подаёт Заказ и сведения, необходимые для создания Организации в eMaktab. После проверки Исполнитель направляет Администратору активационные данные либо иной способ первичной идентификации.	3.1. Tashkilotning mas'ul shaxsi Buyurtma va eMaktabda Tashkilotni yaratish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. Tekshiruvdan so'ng Ijrochi Administratorga faollashtirish ma'lumotlari yoki dastlabki identifikatsiyaning boshqa usulini yuboradi.
3.2. Администратор регистрируется, активирует Сервис «Школа», вносит либо импортирует сведения о работниках, обучающихся и их законных представителях и распределяет предусмотренные системой первоначальные данные доступа.	3.2. Administrator ro'yxatdan o'tadi, «Maktab» Servisini faollashtiradi, xodimlar, o'quvchilar va ularning qonuniy vakillari haqidagi ma'lumotlarni kiritadi yoki import qiladi hamda tizimda nazarda tutilgan dastlabki kirish ma'lumotlarini tarqatadi.
3.3. Первоначальные логины и временные пароли либо ссылки активации являются индивидуальными. Организация обеспечивает их передачу только соответствующим Пользователям лично, по подтверждённой электронной почте, через согласованный мессенджер либо иным безопасным способом.	3.3. Dastlabki login va vaqtinchalik parollar yoki faollashtirish havolalari individual hisoblanadi. Tashkilot ularni faqat tegishli Foydalanuvchilarga shaxsan, tasdiqlangan elektron pochta, kelishilgan messenger yoki boshqa xavfsiz usul orqali berishni ta'minlaydi.
3.4. После регистрации отношения Исполнителя с отдельным Пользователем в части правил использования интерфейса	3.4. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng Ijrochining alohida Foydalanuvchi bilan interfeysdan foydalanish qoidalariga oid munosabatlari

регулируются также пользовательским соглашением, размещённым по адресу http://emaktab.uz/terms/ либо по иному актуальному адресу, указанному в интерфейсе.	http://emaktab.uz/terms/ manzilida yoki interfeysda ko'rsatilgan boshqa amaldagi manzilida joylashtirilgan foydalanuvchi kelishuvi bilan ham tartibga solinadi.
4. ДОСТУПНОСТЬ, ПОДДЕРЖКА И ОБУЧЕНИЕ	4. FOYDALANISH IMKONIYATI, YORDAM VA O'QITISH
4.1. Исполнитель обеспечивает круглосуточную доступность eMaktab через сеть Интернет, за исключением технических работ, аварий, ограниченный каналов связи и иных обстоятельств, предусмотренных Договором. Общая продолжительность плановых технических перерывов не должна превышать 96 часов в календарном году.	4.1. Ijrochi eMaktabdan Internet orqali sutka davomida foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi, texnik ishlar, avariya, aloqa kanallari cheklovlari va Shartnomada nazarda tutilgan boshqa holatlar bundan mustasno. Rejalashtirilgan texnik tanaffuslarning umumiy davomiyligi kalendar yilida 96 soatdan oshmasligi kerak.
4.2. Техническая поддержка предоставляет консультации по работе с eMaktab и принимает сообщения об ошибках. Основной адрес: team@emaktab.uz . Дополнительные каналы и режим работы указываются в Документации.	4.2. Texnik yordam eMaktab bilan ishlash bo'yicha maslahatlar beradi va xatolar haqidagi xabarlarni qabul qiladi. Asosiy manzil: team@emaktab.uz . Qo'shimcha kanallar va ish tartibi Hujjatlarda ko'rsatiladi.
4.3. В базовый объём внедрения может входить групповой Видеоурок посредством Zoom либо иной платформы по расписанию Исполнителя, а также бесплатный онлайн-курс для самостоятельного изучения с выдачей сертификата при успешном прохождении.	4.3. Joriy etishning asosiy hajmiga Ijrochi jadvali bo'yicha Zoom yoki boshqa platforma orqali guruhli Videodars, shuningdek muvaffaqiyatli tugatilganda sertifikat beriladigan mustaqil o'rganish uchun bepul onlayn kurs kirishi mumkin.
4.4. Организация в г. Ташкенте может заказать выезд специалиста. Базовая стоимость — 2 500 000 сумов, срок прибытия — до 3 Рабочих дней с даты подтверждения и оплаты заказа. Выезд за пределы г. Ташкента осуществляется только по отдельному письменному согласованию.	4.4. Toshkent shahridagi Tashkilot mutaxassisning joyiga chiqishini buyurtma qilishi mumkin. Asosiy narx — 2 500 000 so'm, kelish muddati — buyurtma tasdiqlanib, to'langandan boshlab 3 Ish kunigacha. Toshkent shahridan tashqariga chiqish faqat alohida yozma kelishuv asosida amalga oshiriladi.
4.5. Индивидуальный Видеоурок для работников одной Организации может быть заказан за 1 000 000 сумов за одно занятие. Время и платформа согласовываются Сторонами. Указанные цены применяются, если в Заказе или актуальном счёте не установлено иное.	4.5. Bitta Tashkilot xodimlari uchun individual Videodars har bir mashg'ulot uchun 1 000 000 so'm narxda buyurtma qilinishi mumkin. Vaqt va platforma Tomonlar tomonidan kelishiladi. Agar Buyurtma yoki amaldagi hisobda boshqacha belgilanmagan bo'lsa, ko'rsatilgan narxlar qo'llaniladi.
5. ОБЯЗАННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ПО eMAKTAB	5. TASHKILOTNING eMAKTAB BO'YICHA MAJBURIYATLARI
5.1. Организация назначает не менее одного Администратора, ответственного за настройку, актуальность информации, управление ролями и безопасную передачу данных доступа.	5.1. Tashkilot sozlash, ma'lumotlarning dolzarbligi, rollarni boshqarish va kirish ma'lumotlarini xavfsiz berish uchun mas'ul bo'lgan kamida bitta Administratorni tayinlaydi.
5.2. Организация письменно либо иным допустимым способом информирует работников, обучающихся и законных представителей об использовании eMaktab и передаче данных Исполнителю, получает необходимые согласия и иные правовые основания и хранит подтверждающие документы.	5.2. Tashkilot xodimlar, o'quvchilar va qonuniy vakillarni eMaktabdan foydalanish va ma'lumotlarni Ijrochiga berish haqida yozma yoki boshqa maqbul usulda xabardor qiladi, zarur roziliklar va boshqa huquqiy asoslarni oladi hamda tasdiqlovchi hujjatlarni saqlaydi.
5.3. Организация поддерживает сведения в актуальном состоянии, незамедлительно сообщает об отзыве согласия либо необходимости ограничения, исправления или удаления данных и направляет подтверждающие документы по запросу Исполнителя.	5.3. Tashkilot ma'lumotlarni dolzarb holda saqlaydi, rozilik qaytarib olingani yoki ma'lumotlarni cheklash, tuzatish yoxud o'chirish zarurati haqida darhol xabar beradi va Ijrochi so'roviga ko'ra tasdiqlovchi hujjatlarni yuboradi.
5.4. Организация обеспечивает рабочие места, совместимые устройства и подключение к Интернету, а также использует размещённые в eMaktab справочные и методические материалы.	5.4. Tashkilot ish joylari, mos qurilmalar va Internetga ulanishni ta'minlaydi, shuningdek eMaktabda joylashtirilgan ma'lumotnoma va uslubiy materiallardan foydalanadi.
5.5. Минимальный оплачиваемый объём подключения составляет 50 обучающихся, если Заказом не установлен иной минимум. При увеличении фактического количества подключённых обучающихся Организация обязана сообщить Исполнителю и оплатить дополнительный объём по действующему тарифу.	5.5. Agar Buyurtmada boshqa minimum belgilanmagan bo'lsa, ulanishning eng kam to'lanadigan hajmi 50 nafar o'quvchini tashkil etadi. Ulangan o'quvchilarning amaldagi soni oshganda Tashkilot Ijrochini xabardor qilishi va qo'shimcha hajmi amaldagi tarif bo'yicha to'lashi shart.
6. ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И ПРАВИЛА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ	6. AXBOROT XAVFSIZLIGI VA FOYDALANISH QOIDALARI
6.1. Права просмотра и редактирования разграничиваются в зависимости от роли. Администратор управляет ролями работников Организации в пределах функциональности eMaktab.	6.1. Ko'rish va tahrirlash huquqlari rolg qarab ajratiladi. Administrator eMaktab funksional imkoniyatlari doirasida Tashkilot xodimlarining rollarini boshqaradi.
6.2. Пользователи обязаны сохранять конфиденциальность логина, пароля и кодов подтверждения, не передавать их другим лицам и сообщать Администратору и Исполнителю о возможной компрометации.	6.2. Foydalanuvchilar login, parol va tasdiqlash kodlarining maxfiyligini saqlashi, ularni boshqa shaxslarga bermasligi hamda ehtimoliy oshkor bo'lish haqida Administrator va Ijrochini xabardor qilishi shart.
6.3. Запрещается проверять уязвимости, обходить регистрацию и авторизацию, вмешиваться в работу других Пользователей, распространять вирусы и вредоносный код, осуществлять	6.3. Zaifliklarni tekshirish, ro'yxatdan o'tish va avtorizatsiyani chetlab o'tish, boshqa Foydalanuvchilar ishiga xalaqit berish, viruslar va zararli kod tarqatish, ruxsatsiz ommaviy jo'natmalarni amalga oshirish, texnik

массовую несанкционированную рассылку, подменять технические заголовки и использовать автоматизированные средства вне документированных интерфейсов.	sarlavhalarni almashtirish va hujjatlashtirilgan interfeyslardan tashqarida avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanish taqiqlanadi.
6.4. Исполнитель вправе ограничить или заблокировать Профиль, нарушающий правила, закон или права третьих лиц. По возможности Администратору направляется уведомление. Блокировка профиля обучающегося не должна препятствовать внесению уполномоченными работниками образовательной информации, если это технически возможно и безопасно.	6.4. Ijrochi qoidalar, qonun yoki uchinchi shaxslar huquqlarini buzgan Profilni cheklash yoki bloklash huquqiga ega. Imkon qadar Administratorga bildirishnoma yuboriladi. Agar texnik jihatdan mumkin va xavfsiz bo'lsa, o'quvchi profilini bloklash vakolatli xodimlar tomonidan ta'lim ma'lumotlarini kiritishga to'sqinlik qilmasligi kerak.
7. ПЕРСОНАЛЬНЫЕ ДАННЫЕ В eMAKTAB	7. eMAKTABDA SHAXSIY MA'LUMOTLAR
7.1. Исполнитель обрабатывает от имени Организации персональные данные работников, обучающихся и их родителей/законных представителей для регистрации и администрирования Пользователей, ведения электронных журналов и дневников, отражения расписания, посещаемости, успеваемости и заданий, предоставления цифровых образовательных ресурсов, поддержки и защиты системы.	7.1. Ijrochi Tashkilot nomidan xodimlar, o'quvchilar va ularning ota-onalari/qonuniy vakillarining shaxsiy ma'lumotlarini Foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va boshqarish, elektron jurnal va kundaliklarni yuritish, jadval, davomat, o'zlashtirish va topshiriqlarni aks ettirish, raqamli ta'lim resurslarini taqdim etish, tizimni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish maqsadlarida qayta ishlaydi.
7.2. В зависимости от подключённой функциональности могут обрабатываться: Ф.И.О.; дата рождения; пол; контактные данные; сведения об Организации, классе и роли; образовательные результаты, оценки, посещаемость, задания и комментарии; данные учётной записи; технические журналы и сведения об использовании; иные данные, прямо предусмотренные Заказом или Документацией.	7.2. Ulangan funksional imkoniyatlarga qarab quyidagilar qayta ishlanishi mumkin: F.I.Sh.; tug'ilgan sana; jins; aloqa ma'lumotlari; Tashkilot, sinf va rol haqidagi ma'lumotlar; ta'lim natijalari, baholar, davomat, topshiriqlar va izohlar; hisob qaydnomasi ma'lumotlari; texnik jurnallar va foydalanish haqidagi ma'lumotlar; Buyurtma yoki Hujjatlarda bevosita nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar.
7.3. Операции могут включать сбор, систематизацию, накопление, хранение, уточнение, использование, передачу в пределах разрешённых интеграций, обезличивание, блокирование и уничтожение. Биометрические данные обрабатываются только при наличии отдельного законного основания и прямого указания в Заказе.	7.3. Operatsiyalar yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, ruxsat etilgan integratsiyalar doirasida uzatish, shaxssizlantirish, bloklash va yo'q qilishni o'z ichiga olishi mumkin. Biometrik ma'lumotlar faqat alohida qonuniy asos va Buyurtmada bevosita ko'rsatma mavjud bo'lganda qayta ishlanadi.
7.4. Организация определяет состав и достоверность загружаемых данных, обеспечивает правовые основания и информирование субъектов. Исполнитель обрабатывает данные только для исполнения Договора, обеспечения безопасности и выполнения обязательных требований закона.	7.4. Tashkilot yuklanadigan ma'lumotlar tarkibi va ishonchliligini belgilaydi, huquqiy asoslar va subyektlarni xabardor qilishni ta'minlaydi. Ijrochi ma'lumotlarni faqat Shartnomani bajarish, xavfsizlikni ta'minlash va qonunning majburiy talablarini bajarish uchun qayta ishlaydi.
7.5. После прекращения Заказа Исполнитель блокирует доступ и хранит либо удаляет данные в сроки, установленные законодательством, внутренними сроками резервного хранения и применимой Документацией. Организация обязана до прекращения выгрузить доступные отчёты и данные.	7.5. Buyurtma tugatilgandan so'ng Ijrochi kirishni bloklaydi va ma'lumotlarni qonunchilik, ichki xazira saqlash muddatlari hamda qo'llaniladigan Hujjatlarda belgilangan muddatlarda saqlaydi yoki o'chiradi. Tashkilot tugatishdan oldin mavjud hisobot va ma'lumotlarni yuklab olishi shart.
8. ОПЛАТА И СПЕЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ	8. TO'LOV VA MAXSUS JAVOBGARLIK
8.1. Цена определяется выбранным Тарифом, количеством обучающихся и периодом доступа в Заказе. При увеличении количества обучающихся Исполнитель вправе выставить дополнительный счёт за превышение с даты его фактического возникновения либо с начала текущего расчётного периода, если точная дата не может быть установлена.	8.1. Narx Buyurtmada tanlangan Tarif, o'quvchilar soni va kirish davri bilan belgilanadi. O'quvchilar soni oshganda Ijrochi ortiqcha hajm uchun uning amalda yuzaga kelgan sanasidan, aniq sana aniqlanmasa joriy hisob davri boshidan qo'shimcha hisob taqdim etish huquqiga ega.
8.2. При просрочке оплаты Исполнитель после уведомления вправе ограничить доступ к eMaktab до полного погашения задолженности. Если задолженность не погашена в течение 10 календарных дней после претензии, Исполнитель вправе прекратить Заказ в одностороннем порядке.	8.2. To'lov kechiktirilganda Ijrochi xabardor qilgandan so'ng qarzdorlik to'liq qoplanguncha eMaktabga kirishni cheklash huquqiga ega. Agar qarzdorlik talabnoma olingandan keyin 10 kalendar kuni 11chida qoplanmasa, Ijrochi Buyurtmani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.
8.3. За умышленное предоставление заведомо недостоверных сведений о количестве обучающихся Организация уплачивает штраф в размере 50 БРВ только в случае, если данная мера прямо воспроизведена в подписанном Заказе. Уплата штрафа не освобождает от оплаты фактического объёма.	8.3. Tashkilot o'quvchilar soni haqida qasddan bila turib noto'g'ri ma'lumot berganligi uchun 50 BHM miqdorida jarimani faqat ushbu chora imzolangan Buyurtmada bevosita takrorlangan taqdirda to'laydi. Jarimani to'lash amaldagi hajm haqini to'lashdan ozod qilmaydi.
8.4. Оплата производится, на основании выставленного счёта на оплату, с расчётного счёта Организации, если иной законный способ прямо не разрешён Заказом или счётом. Форма счёта на оплату утверждается Приложением №1 к настоящим специальным условиям цифрового продукта АИС «eMaktab».	8.4. Agar boshqa qonuniy usul Buyurtma yoki hisobda bevosita ruxsat etilmagan bo'lsa, to'lov taqdim etilgan hisob-faktura asosida Tashkilotning hisob raqamidan amalga oshiriladi. Hisob-faktura shakli ushbu AAT «eMaktab» raqamli mahsulotining maxsus shartlariga 1-ilova bilan tasdiqlanadi.
8.5. Исполнитель вправе изменить цены для будущего расчётного периода, уведомив Организацию не менее чем за 30 (тридцать) календарных дней. Цена уже оплаченного фиксированного	8.5. Ijrochi kelgusi hisob davri uchun narxlarni Tashkilotni kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin xabardor qilib o'zgartirish huquqiga ega. Majburiy soliqlar va yig'imlar o'zgarishi yoki qonunning bevosita

периода изменению не подлежит, кроме случаев изменения обязательных налогов и сборов либо прямого требования закона.	talabi holatlaridan tashqari, oldindan to'langan qat'iy davr narxi o'zgartirilmaydi.
8.6. Порядок перерасчёта и возврата при досрочном прекращении определяется Специальными условиями и Заказом. При отсутствии специального правила плата за фактически предоставленный доступ, выполненные работы и понесённые невозвратные расходы удерживается, а неиспользованный остаток предоплаты возвращается в течение 10 (десяти) банковских дней.	8.6. Muddatidan oldin tugatilganda qayta hisob-kitob va qaytarish tartibi Maxsus shartlar va Buyurtma bilan belgilanadi. Maxsus qoida bo'lmasa, amalda taqdim etilgan kirish, bajarilgan ishlar va qaytarilmaydigan xarajatlar uchun haq ushlab qolinadi, foydalanilmagan oldindan to'lov qoldig'i 10 (o'n) bank kuni ichida qaytariladi.
9. СРОК И ПРЕКРАЩЕНИЕ ДОСТУПА	9. MUDDAT VA KIRISHNI TO'XTATISH
9.1. Срок доступа определяется Заказом. Если Заказом предусмотрено автоматическое продление, он продлевается на тот же период при отсутствии уведомления об отказе не позднее чем за 10 календарных дней до окончания текущего периода.	9.1. Kirish muddati Buyurtma bilan belgilanadi. Agar Buyurtmada avtomatik uzaytirish nazarda tutilgan bo'lsa, joriy davr tugashidan kamida 10 kalendar kun oldin uzaytirishdan voz kechish haqida bildirishnoma bo'lmasa, u xuddi shu davrga uzaytiriladi.
9.2. Организация вправе отказаться от eMaktab, направив уведомление за 30 календарных дней. До даты прекращения Организация обязана завершить расчёты и выгрузить доступные данные. Условия перерасчёта определяются Офертой и Заказом.	9.2. Tashkilot 30 kalendar kun oldin xabarnoma yuborib eMaktabdan voz kechish huquqiga ega. Tugatish sanasigacha Tashkilot hisob-kitoblarni yakunlashi va mavjud ma'lumotlarni yuklab olishi shart. Qayta hisob-kitob shartlari Oferta va Buyurtma bilan belgilanadi.

ПРИЛОЖЕНИЕ № 1 к Специальным условиям цифрового продукта АИС «eMaktab» Общество с ограниченной ответственностью «KUNDALIK» в лице Генерального директора Потапкина Александра Анатольевича, действующего на основании устава, именуемое в дальнейшем «Исполнитель», согласно пункту 8.4. Специальных условий цифрового продукта АИС «eMaktab» утверждает следующую форму счёта на оплату: Счёта на оплату - «Всё включено»: <table><tr><td></td><td colspan="5">Инвойс № 1 От . .2026 г</td></tr><tr><td>ИСПОЛНИТЕЛЬ:</td><td colspan="5">ООО «KUNDALIK»</td></tr><tr><td>АДРЕС:</td><td colspan="5">г. Ташкент, Чиланзарский р-н, проспект Бунедкор 42/1</td></tr><tr><td>ТЕЛЕФОН:</td><td colspan="5"></td></tr><tr><td>ОРГАНИЗАЦИЯ:</td><td colspan="5"></td></tr><tr><td>АДРЕС:</td><td colspan="5"></td></tr><tr><td>ТЕЛЕФОН:</td><td colspan="5"></td></tr><tr><td colspan="6">Основание: Специальные условия цифрового продукта АИС «eMaktab» (Приложение № 1 к публичной оферте о предоставлении цифровых продуктов и связанных услуг)</td></tr><tr><td></td><td>Наименование</td><td>тариф</td><td>стоимость услуг</td><td>кол-во учеников</td><td>Итого</td></tr><tr><td>1</td><td>электронный дневник</td><td rowspan="3">Всё включено</td><td rowspan="3">—</td><td rowspan="3">—</td><td rowspan="3">—</td></tr><tr><td>2</td><td>мобильное приложение</td></tr><tr><td>3</td><td>отключение рекламы</td></tr><tr><td></td><td>Всего:</td><td></td><td></td><td>—</td><td>—</td></tr><tr><td colspan="3">Цены указаны без учета НДС</td><td></td><td></td><td></td></tr><tr><td colspan="3">К оплате за месяц/квартал/год</td><td></td><td></td><td></td></tr></table> ИП ООО «KUNDALIK» Генеральный директор Потапкина А.А. М.П. Директор _____ М.П.							Инвойс № 1 От . .2026 г					ИСПОЛНИТЕЛЬ:	ООО «KUNDALIK»					АДРЕС:	г. Ташкент, Чиланзарский р-н, проспект Бунедкор 42/1					ТЕЛЕФОН:						ОРГАНИЗАЦИЯ:						АДРЕС:						ТЕЛЕФОН:						Основание: Специальные условия цифрового продукта АИС «eMaktab» (Приложение № 1 к публичной оферте о предоставлении цифровых продуктов и связанных услуг)							Наименование	тариф	стоимость услуг	кол-во учеников	Итого	1	электронный дневник	Всё включено	—	—	—	2	мобильное приложение	3	отключение рекламы		Всего:			—	—	Цены указаны без учета НДС						К оплате за месяц/квартал/год						AAT “eMaktab” raqamli mahsulotining maxsus shartlariga 1-ILOVA “KUNDALIK” mas'uliyati cheklangan jamiyat, bundan keyin “Ijrochi” nomi bilan atalib, bosh direktor Potapkin Aleksandr Anatolevich tomonidan, ushbu tashkilot Nizomiga tayangan holda, ushbu AAT “eMaktab” raqamli mahsulotining maxsus shartlarining 8.4. bandiga muvofiq quyidagi hisob-faktura shaklini tasdiqlaydi: To'lov hisob-fakturasi - «HAMMASI ICHIDA»: <table><tr><td></td><td colspan="5">Invoys № 1 . .2026 yildan</td></tr><tr><td>Ijrochi:</td><td colspan="5">MCHJ «KUNDALIK»</td></tr><tr><td>Manzil:</td><td colspan="5">Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko'chasi, 42/1-uy</td></tr><tr><td>Telefon:</td><td colspan="5"></td></tr><tr><td>Tashkilot:</td><td colspan="5"></td></tr><tr><td>Manzil:</td><td colspan="5"></td></tr><tr><td>Telefon:</td><td colspan="5"></td></tr><tr><td colspan="6">Asos: AAT “eMaktab” raqamli mahsulotining maxsus shartlari (raqamli mahsulotlar va ular bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etish to'g'risidagi ommaviy o'fertaga 1-ilova)</td></tr><tr><td></td><td>Nomi</td><td>tarif</td><td>Xizmat narxi</td><td>O'quvchilar soni</td><td>umumiy</td></tr><tr><td>1</td><td>Elektron kundalik</td><td rowspan="3">Hammasi ichida</td><td rowspan="3">—</td><td rowspan="3">—</td><td rowspan="3">—</td></tr><tr><td>2</td><td>Mobil ilova</td></tr><tr><td>3</td><td>Reklama o'chirilishi</td></tr><tr><td></td><td>Umumiy:</td><td></td><td></td><td>—</td><td>—</td></tr><tr><td colspan="3">Narxlar QQSni hisobga olmasdan ko'rsatilgan</td><td></td><td></td><td></td></tr><tr><td colspan="3">Oyda/chorakda/yilda to'lanishi</td><td></td><td></td><td></td></tr></table> MCHJ XK «KUNDALIK» Bosh direktor Potapkin A.A. М.П. Direktor _____ М.П.							Invoys № 1 . .2026 yildan					Ijrochi:	MCHJ «KUNDALIK»					Manzil:	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko'chasi, 42/1-uy					Telefon:						Tashkilot:						Manzil:						Telefon:						Asos: AAT “eMaktab” raqamli mahsulotining maxsus shartlari (raqamli mahsulotlar va ular bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etish to'g'risidagi ommaviy o'fertaga 1-ilova)							Nomi	tarif	Xizmat narxi	O'quvchilar soni	umumiy	1	Elektron kundalik	Hammasi ichida	—	—	—	2	Mobil ilova	3	Reklama o'chirilishi		Umumiy:			—	—	Narxlar QQSni hisobga olmasdan ko'rsatilgan						Oyda/chorakda/yilda to'lanishi					
	Инвойс № 1 От . .2026 г																																																																																																																																																																														
ИСПОЛНИТЕЛЬ:	ООО «KUNDALIK»																																																																																																																																																																														
АДРЕС:	г. Ташкент, Чиланзарский р-н, проспект Бунедкор 42/1																																																																																																																																																																														
ТЕЛЕФОН:																																																																																																																																																																															
ОРГАНИЗАЦИЯ:																																																																																																																																																																															
АДРЕС:																																																																																																																																																																															
ТЕЛЕФОН:																																																																																																																																																																															
Основание: Специальные условия цифрового продукта АИС «eMaktab» (Приложение № 1 к публичной оферте о предоставлении цифровых продуктов и связанных услуг)																																																																																																																																																																															
	Наименование	тариф	стоимость услуг	кол-во учеников	Итого																																																																																																																																																																										
1	электронный дневник	Всё включено	—	—	—																																																																																																																																																																										
2	мобильное приложение																																																																																																																																																																														
3	отключение рекламы																																																																																																																																																																														
	Всего:			—	—																																																																																																																																																																										
Цены указаны без учета НДС																																																																																																																																																																															
К оплате за месяц/квартал/год																																																																																																																																																																															
	Invoys № 1 . .2026 yildan																																																																																																																																																																														
Ijrochi:	MCHJ «KUNDALIK»																																																																																																																																																																														
Manzil:	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko'chasi, 42/1-uy																																																																																																																																																																														
Telefon:																																																																																																																																																																															
Tashkilot:																																																																																																																																																																															
Manzil:																																																																																																																																																																															
Telefon:																																																																																																																																																																															
Asos: AAT “eMaktab” raqamli mahsulotining maxsus shartlari (raqamli mahsulotlar va ular bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etish to'g'risidagi ommaviy o'fertaga 1-ilova)																																																																																																																																																																															
	Nomi	tarif	Xizmat narxi	O'quvchilar soni	umumiy																																																																																																																																																																										
1	Elektron kundalik	Hammasi ichida	—	—	—																																																																																																																																																																										
2	Mobil ilova																																																																																																																																																																														
3	Reklama o'chirilishi																																																																																																																																																																														
	Umumiy:			—	—																																																																																																																																																																										
Narxlar QQSni hisobga olmasdan ko'rsatilgan																																																																																																																																																																															
Oyda/chorakda/yilda to'lanishi																																																																																																																																																																															

Счёта на оплату – «Стандарт»:					
		Инвойс № 1 от __.__.2026г			
ИСПОЛНИТЕЛЬ:		ООО «KUNDALIK»			
АДРЕС:		г. Ташкент, Чиланзарский р-н, проспект Бунедкор 42/1			
ТЕЛЕФОН:					
ОРГАНИЗАЦИЯ:					
АДРЕС:					
ТЕЛЕФОН:					
Основание: Специальные условия цифрового продукта АИС «eMaktab» (Приложение № 1 к публичной оферте о предоставлении цифровых продуктов и связанных услуг)					
	Наименование	тариф	стоимость услуг	кол-во учеников	Итого
1	Электронный дневник	Стандарт	_____	_____	_____
2					
3					
	Всего:			_____	_____
	Цены указаны без учета НДС				
	К оплате за месяц/квартал/год				
ИП ООО «KUNDALIK»					
Генеральный директор					
Потапкина А.А.					
М.П.					
Директор					

М.П.					

To'lov hisob-fakturasi – «STANDART»:					
		Invoys № 1 __.__.2026 yildan			
Ijrochi:		MCHJ «KUNDALIK»			
Manzil:		Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko'chasi, 42/1-uy			
Telefon:					
Tashkilot:		_____			
Manzil:		_____			
Telefon:		_____			
Asos: AAT “eMaktab” raqamli mahsulotining maxsus shartlari (raqamli mahsulotlar va ular bilan bog‘liq xizmatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi ommaviy ofertaga 1-ilova)					
	Nomi	tarif	Xizmat narxi	O‘quvchilar soni	umumiy
1	Elektron kundalik	Standart	_____	_____	_____
2					
3					
	Umumiy:			_____	_____
	Narxlar QQSni hisobga olmasdan ko‘rsatilgan				
	Oyda/chorakda/yilda to‘lanishi				
MCHJ XK «KUNDALIK»					
Bosh direktor					
Direktor					
Potapkin A.A.					
М.П.					

М.П.					

ПРИЛОЖЕНИЕ № 2 К ОФЕРТЕ <i>Специальные условия цифрового продукта «Платформа для осуществления платежей»</i>	OFERTAGA 2-ILOVA <i>«To'lovlarni amalga oshirish platformasi» raqamli mahsulotining maxsus shartlari</i>
Настоящие Специальные условия являются неотъемлемой частью Публичной оферты Исполнителя об общих условиях предоставления цифровых продуктов и связанных услуг (далее - Оферта) и применяются исключительно к цифровому продукту «Платформа для осуществления платежей» (далее - Платформа). Термины, не определённые настоящими Специальными условиями, имеют значения, установленные Офертой. При противоречии настоящих Специальных условий и Оферты применяются настоящие Специальные условия в отношении Платформы.	Ushbu Maxsus shartlar Ijrochining raqamli mahsulotlar va ular bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etishning umumiy shartlari to'g'risidagi Ommaviy ofertasining (keyingi o'rinlarda - Oferta) ajralmas qismi bo'lib, faqat «To'lovlarni amalga oshirish platformasi» raqamli mahsulotiga (keyingi o'rinlarda - Platforma) nisbatan qo'llaniladi. Ushbu Maxsus shartlarda ta'riflanmagan atamalar Ofertada belgilangan ma'noga ega. Ushbu Maxsus shartlar bilan Oferta o'rtasida qarama-qarshilik bo'lsa, Platformaga nisbatan ushbu Maxsus shartlar qo'llaniladi.
1. ТЕРМИНЫ	1. ATAMALAR
1.1. Платформа - принадлежащий Исполнителю программный продукт и технический интерфейс, посредством которого Пользователь может получить информацию о начислении или стоимости услуг Организации, сформировать параметры платежа и осуществить платёж в пользу Организации через Банк-партнёр Исполнителя.	1.1. Platforma – Ijrochiga tegishli dasturiy mahsulot va texnik interfeys bo'lib, u orqali Foydalanuvchi Tashkilot xizmatlari bo'yicha hisoblangan summalar yoki xizmatlar qiymati to'g'risida ma'lumot olishi, to'lov parametrlarini shakllantirishi hamda Ijrochining Hamkor banki orqali Tashkilot foydasiga to'lovni amalga oshirishi mumkin.
1.2. Банк-партнёр - коммерческий банк Республики Узбекистан, имеющий право оказывать соответствующие платёжные услуги и обеспечивающий приём, авторизацию, обработку, проведение и расчёты по Платежам. Наименование Банка-партнёра и иные необходимые сведения указываются в Заказе, интерфейсе Платформы и/или документах Банка-партнёра, доступных Пользователю до подтверждения Платежа.	1.2. Hamkor bank - tegishli to'lov xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan hamda To'lovlarni qabul qilish, avtorizatsiya qilish, qayta ishlash, o'tkazish va ular bo'yicha hisob-kitoblarni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi tijorat banki. Hamkor bankning nomi va boshqa zarur ma'lumotlar Buyurtmada, Platforma interfeysida va/yoki To'lov tasdiqlanishidan oldin Foydalanuvchi uchun mavjud bo'lgan Hamkor bank hujjatlarida ko'rsatiladi.
1.3. Пользователь (Платательщик) - физическое или юридическое лицо, которое посредством Платформы инициирует Платёж за услуги Организации.	1.3. Foydalanuvchi (To'lovchi) - Platforma orqali Tashkilot xizmatlari uchun To'lovni boshlaydigan jismoniy yoki yuridik shaxs.
1.4. Платёж - безналичный перевод денежных средств, инициированный Пользователем и осуществляемый Банком-партнёром в пользу Организации в оплату фактически оказываемых или подлежащих оказанию услуг Организации.	1.4. To'lov - Foydalanuvchi tomonidan boshlangan va Hamkor bank tomonidan Tashkilotning amalda ko'rsatilayotgan yoki ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmatlari haqini to'lash uchun Tashkilot foydasiga amalga oshiriladigan naqd pulsiz pul mablag'lari o'tkazmasi.
1.5. Сумма платежа - стоимость Услуг Организации, выбранных Пользователем для оплаты, без включения Сервисного сбора и/или Комиссии Банка-партнёра.	1.5. To'lov summasi - Foydalanuvchi to'lash uchun tanlagan Tashkilot xizmatlarining Servis yig'imi va (yoki) Hamkor bank komissiyasini o'z ichiga olmaydigan qiymati.
1.6. Платёжная информация - сведения, необходимые для идентификации начисления и отражения статуса Платежа, включая идентификатор Пользователя или лицевого счёта, назначение, Сумму платежа, дату и время, номер операции и статус, но не включая PIN-код, CVV/CVC-код и иные секретные платёжные реквизиты.	1.6. To'lov ma'lumotlari - hisoblangan summani aniqlash va To'lov holatini aks ettirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, jumladan Foydalanuvchi yoki shaxsiy hisob identifikatori, to'lov maqsadi, To'lov summasi, sana va vaqt, operatsiya raqami va holati, biroq PIN-kod, CVV/CVC-kod va boshqa maxfiy to'lov rekvizitlarini o'z ichiga olmaydi.
1.7. Сервисный сбор - вознаграждение Исполнителя за предоставление доступа к Платформе, её техническое сопровождение, формирование интерфейса и обеспечение информационно-коммуникационного и технологического взаимодействия с Банком-партнёром, уплачиваемое Организацией или Пользователем в порядке, установленном разделом 6 настоящих Специальных условий. Сервисный сбор не является комиссией за оказание платёжных услуг.	1.7. Servis yig'imi - Platformadan foydalanish huquqini taqdim etish, uni texnik qo'llab-quvvatlash, interfeysni shakllantirish hamda Hamkor bank bilan axborot-kommunikatsiya va texnologik o'zaro hamkorlikni ta'minlash uchun Ijrochining ushbu Maxsus shartlarning 6-bo'limida belgilangan tartibda Tashkilot yoki Foydalanuvchi tomonidan to'lanadigan haqi. Servis yig'imi to'lov xizmatlarini ko'rsatish uchun komissiya hisoblanmaydi.
1.8. Комиссия Банка-партнёра - вознаграждение Банка-партнёра за оказание платёжных услуг, связанных с приёмом, авторизацией, обработкой, проведением и расчётами по Платежу,	1.8. Hamkor bank komissiyasi - To'lovni qabul qilish, avtorizatsiya qilish, qayta ishlash, amalga oshirish va u bo'yicha hisob-kitoblar bilan bog'liq to'lov xizmatlarini ko'rsatgani uchun Hamkor bankning ushbu

уплачиваемое Организацией или Пользователем в порядке, предусмотренном разделом 6 настоящих Специальных условий и документами Банка-партнёра.	Maxsus shartlarning 6-bo'limi va Hamkor bank hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Tashkilot yoki Foydalanuvchi tomonidan to'lanadigan haqi.
1.9. Услуги Организации - образовательные, информационные, дополнительные и иные законные услуги, оказываемые Организацией Пользователям и являющиеся самостоятельным основанием соответствующего Платежа. Исполнитель не является стороной договора между Организацией и Пользователем об оказании таких услуг.	1.9. Tashkilot xizmatlari - Tashkilot tomonidan Foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan va tegishli To'lovning mustaqil asosi bo'lgan ta'lim, axborot, qo'shimcha va boshqa qonuniy xizmatlar. Ijrochi bunday xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha Tashkilot va Foydalanuvchi o'rtasidagi shartnomaning tarafi hisoblanmaydi.
2. НАЗНАЧЕНИЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ ПЛАТФОРМЫ	2. PLATFORMANING MAQSADI VA FUNKSIONAL IMKONIYATLARI
2.1. Исполнитель предоставляет Организации право использования Платформы как цифрового канала, позволяющего Пользователям оплачивать Услуги Организации посредством платёжной инфраструктуры Банка-партнёра.	2.1. Ijrochi Tashkilotga Platformadan Foydalanuvchilar Hamkor bankning to'lov infratuzilmasi orqali Tashkilot xizmatlari haqini to'lashlari mumkin bo'lgan raqamli kanal sifatida foydalanish huquqini beradi.
2.2. В зависимости от Заказа Платформа может обеспечивать: автоматическое формирование и заполнение реквизитов Организации; выбор Пользователем назначения Платежа; отображение начисления и Суммы платежа; передачу параметров Платежа Банку-партнёру; переход в защищённую платёжную форму; получение и отображение статуса Платежа; формирование реестров и отчётов; направление электронных уведомлений; интеграцию с информационными системами Организации.	2.2. Buyurtmaga qarab Platforma quyidagilarni ta'minlashi mumkin: Tashkilot rekvizitlarini avtomatik shakllantirish va to'ldirish; Foydalanuvchi tomonidan To'lov maqsadini tanlash; hisoblangan summa va To'lov summasini ko'rsatish; To'lov parametrlarini Hamkor bankka uzatish; himoyalangan to'lov shakliga o'tish; To'lov holatini olish va ko'rsatish; reyestrlar va hisobotlarni shakllantirish; elektron bildirishnomalarni yuborish; Tashkilot axborot tizimlari bilan integratsiya.
2.3. Конкретный состав функций, адрес Платформы, порядок интеграции, перечень поддерживаемых способов оплаты, отчётность и иные параметры определяются Заказом и технической документацией.	2.3. Funksiyalarning aniq tarkibi, Platforma manzili, integratsiya tartibi, qo'llab-quvvatlanadigan to'lov usullari ro'yxati, hisobot va boshqa parametrlar Buyurtma hamda texnik hujjatlar bilan belgilanadi.
2.4. Отображение в Платформе сообщения о направлении Платежа в обработку не означает его исполнения. Платёж считается исполненным только после получения окончательного подтверждения Банка-партнёра.	2.4. Platformada To'lov qayta ishlashga yuborilganligi to'g'risidagi xabarning ko'rsatilishi uning bajarilganligini anglatmaydi. To'lov faqat Hamkor bankning yakuniy tasdig'i olinganidan so'ng bajarilgan hisoblanadi.
3. БАНК-ПАРТНЁР И ПРАВОВАЯ МОДЕЛЬ ПРОВЕДЕНИЯ ПЛАТЕЖЕЙ	3. HAMKOR BANK VA TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MODELI
3.1. Все платёжные услуги, связанные с Платежом, оказываются Банком-партнёром и, при необходимости, иными участвующими в операции поставщиками платёжных услуг. Банк-партнёр самостоятельно осуществляет авторизацию, обработку, проведение Платежа, межбанковские расчёты, зачисление денежных средств Организации и иные доступные банковские операции.	3.1. To'lov bilan bog'liq barcha to'lov xizmatlari Hamkor bank va zarur hollarda operatsiyada ishtirok etuvchi boshqa to'lov xizmatlari yetkazib beruvchilari tomonidan ko'rsatiladi. Hamkor bank avtorizatsiya, To'lovni qayta ishlash va amalga oshirish, banklararo hisob-kitoblar, pul mablag'larini Tashkilotga o'tkazish va boshqa mavjudbank operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradi.
3.2. В рамках настоящего Продукта Исполнитель не выступает банком, поставщиком платёжных услуг, оператором платёжной системы, платёжной организацией, платёжным агентом либо платёжным субагентом и не заключает с Пользователем договор на оказание платёжных услуг.	3.2. Mazkur Mahsulot doirasida Ijrochi bank, to'lov xizmatlari yetkazib beruvchisi, to'lov tizimi operatori, to'lov tashkiloti, to'lov agenti yoki to'lov subagenti sifatida faoliyat yuritmaydi hamda Foydalanuvchi bilan to'lov xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzmaydi.
3.3. Исполнитель не открывает и не ведёт платёжные или банковские счета Пользователей и Организации, не осуществляет приём, хранение, списание, зачисление или перевод Суммы платежа, не выдаёт платёжные инструменты, не распоряжается Суммой платежа Пользователя и не принимает решения об исполнении или отклонении Платежа. Получение Исполнителем собственного Сервисного сбора в порядке, предусмотренном разделом 6, не является оказанием платёжной услуги.	3.3. Ijrochi Foydalanuvchilar va Tashkilotning to'lov yoki bank hisobvaraqlarini ochmaydi va yuritmaydi, To'lov summasini qabul qilish, saqlash, hisobdan chiqarish, hisobga kiritish yoki o'tkazishni amalga oshirmaydi, to'lov vositalarini chiqarmaydi, Foydalanuvchining To'lov summasini tasarruf etmaydi hamda To'lovni bajarish yoki rad etish haqida qaror qabul qilmaydi. Ijrochining 6-bo'limda nazarda tutilgan tartibda o'z Servis yig'imini olishi to'lov xizmatini ko'rsatish hisoblanmaydi.
3.4. Функции Исполнителя ограничиваются предоставлением программного интерфейса и обеспечением информационно-коммуникационного и технологического взаимодействия между Организацией как получателем денежных средств и Банком-партнёром как поставщиком	3.4. Ijrochining vazifalari dasturiy interfeysni taqdim etish hamda pul mablag'larini oluvchi sifatidagi Tashkilot bilan to'lov xizmatlari yetkazib beruvchisi sifatidagi Hamkor bank o'rtasida axborot-kommunikatsiya va texnologik o'zaro hamkorlikni ta'minlash bilan cheklanadi. To'lovni amalga oshirish

платёжных услуг. Распоряжение на совершение Платежа формируется и подтверждается Пользователем непосредственно в платёжной программе Банка-партнёра, интегрированной с Платформой.	to‘g‘risidagi farmoyish Foydalanuvchi tomonidan bevosita Platformaga integratsiya qilingan Hamkor banking to‘lov dasturida shakllantiriladi va tasdiqlanadi.
3.5. Денежные средства в части Суммы платежа, подлежащей перечислению Организации, перечисляются Банком-партнёром непосредственно на банковский счёт Организации, указанный в Заказе и/или договоре Организации с Банком-партнёром. Сервисный сбор может перечисляться Банком-партнёром Исполнителю в порядке, предусмотренном разделом 6, как оплата услуг Исполнителя. Исполнитель не принимает, не хранит и не переводит Сумму платежа в пользу Организации и не учитывает её как транзитные либо привлечённые средства.	3.5. To‘lov summasining Tashkilotga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan qismi Hamkor bank tomonidan bevosita Buyurtmada va/yoki Tashkilotning Hamkor bank bilan tuzilgan shartnomasida ko‘rsatilgan Tashkilot bank hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Servis yig‘imi 6-bo‘limda nazarda tutilgan tartibda Ijrochi xizmatlari uchun haq sifatida Hamkor bank tomonidan Ijrochiga o‘tkazilishi mumkin. Ijrochi Tashkilot foydasiga To‘lov summasini qabul qilmaydi, saqlamaydi yoki o‘tkazmaydi hamda uni tranzit yoki jalb qilingan mablag‘lar sifatida hisobga olmaydi.
3.6. Платёжные реквизиты и средства подтверждения Платежа вводятся Пользователем в платёжной программе Банка-партнёра, интегрированной с Платформой. Исполнитель не получает и не хранит PIN-коды, CVV/CVC-коды, пароли одноразового подтверждения и полные реквизиты банковских карт. Исполнитель получает от Банка-партнёра только сведения и технические идентификаторы, необходимые для отображения статуса и формирования отчётности.	3.6. To‘lov rekvizitlari va To‘lovni tasdiqlash vositalari Foydalanuvchi tomonidan Hamkor banking himoyalangan muhitida kiritiladi. Ijrochi PIN-kodlar, CVV/CVC-kodlar, bir martalik tasdiqlash parollari va bank kartalarining to‘liq rekvizitlarini olmaydi hamda saqlamaydi. Ijrochi Hamkor bankdan faqat holatni ko‘rsatish va hisobotni shakllantirish uchun zarur ma‘lumotlar va texnik identifikatorlarni oladi.
3.7. Правила оказания платёжных услуг, порядок подтверждения Платежа, сроки обработки, основания отказа, требования безопасности, размер и порядок взимания Комиссии Банка-партнёра и документ, подтверждающий Платёж, определяются законодательством и пользовательским соглашением Банка-партнёра. Пользователь обязан ознакомиться с ними до подтверждения Платежа.	3.7. To‘lov xizmatlarini ko‘rsatish qoidalari, To‘lovni tasdiqlash tartibi, qayta ishlash muddatlari, rad etish asoslari, xavfsizlik talablari, Hamkor bank komissiyasining miqdori va uni undirish tartibi hamda To‘lovni tasdiqlovchi hujjat qonunchilik va Hamkor bankning Foydalanuvchi kelishuvi talablariga muvofiq belgilanadi. Foydalanuvchi To‘lovni tasdiqlashdan oldin ular bilan tanishishi shart.
3.8. Банк-партнёр вправе приостановить, отклонить или дополнительно проверить Платёж в случаях, предусмотренных законодательством, правилами платёжной инфраструктуры, требованиями информационной безопасности, противодействия мошенничеству, легализации доходов и финансированию терроризма, а также при недостаточности средств, превышении лимитов или иных случаях, предусмотренных законодательством или пользовательским соглашением Банка-партнёра.	3.8. Hamkor bank qonunchilik, to‘lov infratuzilmasi qoidalari, axborot xavfsizligi, firibgarlikka, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash talablarida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek mablag‘lar yetarli bo‘lmaganda, limitlar oshib ketganda yoki qonunchilik va Hamkor bankning Foydalanuvchi kelishuvida ko‘rsatilgan boshqa holatlarda To‘lovni to‘xtatib turishi, rad etishi yoki qo‘shimcha tekshirishi mumkin.
3.9. Исполнитель вправе заменить Банка-партнёра другим банком, имеющим право оказывать соответствующие платёжные услуги, при условии сохранения основной функциональности Платформы. О существенном изменении порядка проведения Платежей Организация уведомляется в разумный срок. Стороны согласились, что приемлемым способом уведомления является направление сообщения с уведомлением в личный кабинет Организации, направление электронного письма по адресу электронной почты, указанной в Заказе и иные способы, отдельно согласованные Сторонами.	3.9. Ijrochi Platformaning asosiy funksional imkoniyatlari saqlanishi sharti bilan Hamkor bankni tegishli to‘lov xizmatlarini ko‘rsatish huquqiga ega boshqa bankka almashtirishga haqli. To‘lovlarni amalga oshirish tartibidagi muhim o‘zgarish haqida Tashkilot oqilona muddatda xabardor qilinadi. Tomonlar maqbul xabardor qilish usuli sifatida Tashkilotning shaxsiy kabinetiga xabarnoma yuborish, Buyurtmada ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga elektron xat yuborish hamda Tomonlar tomonidan alohida kelishilgan boshqa usullarni belgiladilar.
4. ПОДКЛЮЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ	4. TASHKILOTNI ULASH
4.1. Организация предоставляет Исполнителю сведения об Услугах Организации, ценах, начислениях, лицевых счетах, назначениях платежей, правилах возврата, контактных лицах и иные данные, необходимые для настройки Платформы и интеграции.	4.1. Tashkilot Ijrochiga Tashkilot xizmatlari, narxlar, hisoblangan summalar, shaxsiy hisobvaraqlar, to‘lov maqsadlari, qaytarish qoidalari, aloqa qiluvchi shaxslar va Platformani sozlash hamda integratsiya qilish uchun zarur boshqa ma‘lumotlarni taqdim etadi.
4.2. Организация несёт ответственность за полноту, достоверность и актуальность переданных данных. При изменении банковских реквизитов Организация обязана до даты начала использования новых реквизитов направить Исполнителю письменное уведомление заказным письмом с уведомлением о вручении (получении) или электронное уведомление через платформу Didox, указав новые реквизиты и дату начала их применения. До подтверждённого получения Исполнителем такого уведомления и завершения технического обновления Платформы ранее предоставленные реквизиты считаются действующими. Если Организация не направила указанное	4.2. Tashkilot taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘liqligi, ishonchliligi va dolzarbligi uchun javob beradi. Bank rekvizitlari o‘zgarganda Tashkilot yangi rekvizitlardan foydalanish boshlanadigan sanadan oldin Ijrochiga yangi rekvizitlar va ularni qo‘llash boshlanadigan sanani ko‘rsatgan holda topshirilganligi (olinganligi) to‘g‘risida bildirishnoma bilan buyurtma xat orqali yozma xabarnoma yoki Didox platformasi orqali electron xabarnoma yuborishi shart. Ijrochi bunday xabarnomani olganligi tasdiqlanguniga va Platformadagi texnik yangilanish yakunlanguniga qadar avval taqdim etilgan rekvizitlar amaldagi rekvizitlar hisoblanadi. Tashkilot mazkur xabarnomani yubormagan, kechiktirib yoki

уведомление либо направила его несвоевременно или ненадлежащим способом, Исполнитель не несёт ответственности за перечисление Платежей по ранее предоставленным реквизитам, задержку или неполучение денежных средств Организацией и иные связанные последствия.	tegishli bo‘lmagan usulda yuborgan taqdirda, Ijrochi To‘lovlarning avval taqdim etilgan rekvizitlarga o‘tkazilishi, Tashkilot tomonidan pul mablag‘larining kechikib yoki olinmay qolishi hamda boshqa bog‘liq oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.
4.3. Исполнитель активирует Платформу после выполнения Организацией условий настоящего раздела, завершения технической настройки и получения подтверждения Банка-партнёра о готовности к проведению Платежей.	4.3. Ijrochi Tashkilot ushbu bo‘lim shartlarini bajarganidan, texnik sozlash yakunlanganidan va Hamkor bankdan To‘lovlarni amalga oshirishga tayyorlik tasdig‘i olinganidan so‘ng Platformani faollashtiradi.
5. ПОРЯДОК СОВЕРШЕНИЯ И УЧЁТА ПЛАТЕЖЕЙ	5. TO‘LOVLARNI AMALGA OSHIRISH VA HISOBGA Olish TARTIBI
5.1. При инициировании Платежа Платформа автоматически формирует и заполняет банковские реквизиты Организации (школы) на основании данных, предоставленных Организацией. Пользователь не вводит и не изменяет такие реквизиты и из параметров Платежа самостоятельно выбирает только назначение Платежа из перечня, доступного в Платформе, либо может самостоятельно ввести иное назначение; Сумма платежа или начисление формируются и отображаются Платформой на основании данных Организации. До перехода к оплате Пользователю предоставляется информация о получателе, назначении, Сумме платежа, а также о применимых Сервисном сборе и/или Комиссии Банка-партнёра.	5.1. To‘lov boshlanganda Platforma Tashkilot taqdim etgan ma‘lumotlar asosida Tashkilotning (maktabning) bank rekvizitlarini avtomatik ravishda shakllantiradi va to‘ldiradi. Foydalanuvchi bunday rekvizitlarni kiritmaydi yoki o‘zgartirmaydi hamda To‘lov parametrlaridan faqat Platformada mavjud ro‘yxatdan To‘lov maqsadini mustaqil tanlaydi yoki mustaqil ravishda boshqa To‘lov maqsadini kiritishi mumkin; To‘lov summasi yoki hisoblangan summa Tashkilot ma‘lumotlari asosida Platforma tomonidan shakllantiriladi va ko‘rsatiladi. To‘lovga o‘tishdan oldin Foydalanuvchiga mablag‘ oluvchi, To‘lov maqsadi, To‘lov summasi, shuningdek qo‘llaniladigan Servis yig‘imi va (yoki) Hamkor bank komissiyasi haqida ma‘lumot beriladi.
5.2. После подтверждения отображённых параметров Платформа передаёт Банку-партнёру необходимые технические сведения и направляет Пользователя в специальный интерфейс Платформы, интегрированный с платёжной программой Банка-партнёра.. Пользователь самостоятельно выбирает допустимый платёжный инструмент и подтверждает распоряжение на Платёж, включая общую сумму, подлежащую списанию.	5.2. Ko‘rsatilgan parametrlar tasdiqlangandan so‘ng Platforma Hamkor bankka zarur texnik ma‘lumotlarni uzatadi va va Foydalanuvchini Hamkor bankning to‘lov dasturiga integratsiya qilingan Platformaning maxsus interfeysiga yo‘naltiradi. Foydalanuvchi ruxsat etilgan to‘lov vositasini mustaqil tanlaydi va hisobdan chiqariladigan umumiy summani o‘z ichiga olgan holda To‘lov farmoyishini tasdiqlaydi.
5.3. После обработки операции Банк-партнёр направляет Платформе техническое сообщение о статусе Платежа. Платформа отражает такой статус в учётной записи Пользователя и/или отчёте Организации.	5.3. Operatsiya qayta ishlangandan so‘ng Hamkor bank Platformaga To‘lov holati haqida texnik xabar yuboradi. Platforma ushbu holatni Foydalanuvchining hisob qaydnomasida va/yoki Tashkilot hisobotida aks ettiradi.
5.4. Электронное сообщение или уведомление Исполнителя имеет информационный характер. Официальным подтверждением исполнения Платежа является документ Банка-партнёра (в виде фискального чека за Сервисный сбор и/или комиссию Банка-партнёра) и Организации (фискальный чек или иной документ, подтверждающий оплату Суммы платежа).	5.4. Ijrochining elektron xabari yoki bildirishnomasi axborot xususiyatiga ega. To‘lov bajarilganligining rasmiy tasdig‘i qonunchilik talablariga javob beradigan Hamkor bank (Servis yig‘imi va/yoki Hamkor bank komissiyasi bo‘yicha fiskal chek shaklida) va Tashkilot (To‘lov summasi to‘langanligini tasdiqlovchi fiskal chek yoki boshqa hujjat) tomonidan rasmiylashtirilgan hujjat hisoblanadi.
5.5. При статусе «в обработке», «ожидает подтверждения», «отклонён», «отменён» либо при отсутствии окончательного статуса Организация самостоятельно определяет возможность предоставления Услуги Организации с учётом риска неполучения денежных средств.	5.5. «Qayta ishlanmoqda», «tasdiq kutilmoqda», «rad etilgan», «bekor qilingan» holatida yoki yakuniy holat mavjud bo‘lmaganda Tashkilot pul mablag‘larini olmaslik xavfini hisobga olgan holda Tashkilot xizmatini ko‘rsatish imkoniyatini mustaqil belgilaydi.
5.6. Платформа предназначена исключительно для безналичных Платежей. Исполнитель не принимает наличные денежные средства от Пользователей.	5.6. Platforma faqat naqd pulsiz To‘lovlar uchun mo‘ljallangan. Ijrochi Foydalanuvchilardan naqd pul mablag‘larini qabul qilmaydi.
6. СЕРВИСНЫЙ СБОР И КОМИССИЯ БАНКА-ПАРТНЁРА	6. SERVIS YIG‘IMI VA HAMKOR BANK KOMISSIYASI
6.1. За каждый Успешный платёж взимается Сервисный сбор и/или Комиссия Банка-партнёра в сумме составляющие 1% (один процент) от Суммы платежа за один Успешный платёж. Обязанность по их уплате возлагается на Организацию или Пользователя в зависимости от модели, определённой Организацией в соответствии с пунктом 6.3.	6.1. Har bir Muvaffaqiyatli to‘lov uchun To‘lov summasining 1% (bir foizini) tashkil etuvchi Servis yig‘imi va/yoki Hamkor bank komissiyasi undiriladi. Ularni to‘lash majburiyati Tashkilot tomonidan 6.3-bandga muvofiq belgilangan modelga qarab Tashkilot yoki Foydalanuvchi zimmasiga yuklanadi.
6.2. Размер суммы Комиссии Банка-партнёра и/или Сервисного сбора по каждому Успешному платежу рассчитывается по формуле 1% от Суммы платежа. Расчёт производится отдельно по каждому Платежу без суммирования нескольких Платежей.	6.2. Har bir Muvaffaqiyatli to‘lov bo‘yicha Hamkor bank komissiyasi va/yoki Servis yig‘imi yig‘indisi quyidagi formula asosida hisoblanadi: To‘lov summasining 1 foizi. Hisob-kitob bir nechta To‘lovlarni qo‘shmasdan har bir To‘lov bo‘yicha alohida amalga oshiriladi.

6.3. Организация по своему усмотрению определяет применимую модель взимания Сервисного сбора и Комиссии Банка-партнёра, если иное прямо не установлено императивными требованиями законодательства или условиями Банка-партнёра. Применимая модель указывается в Заказе и/или интерфейсе Платформы и предусматривает: (а) взимание соответствующего сбора и/или комиссии с Организации - путём их удержания из Суммы платежа до перечисления остатка Организации; или (б) взимание соответствующего сбора и/или комиссии с Пользователя - поверх Суммы платежа.	6.3. Tashkilot, agar qonunchilikning majburiy talablari yoki Hamkor bank shartlarida bevosita boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Servis yig'imi va Hamkor bank komissiyasini undirishning qo'llaniladigan modelini o'z ixtiyoriga ko'ra belgilaydi. Qo'llaniladigan model Buyurtmada va/yoki Platforma interfeysida ko'rsatiladi hamda quyidagilardan birini nazarda tutadi: (a) tegishli yig'im va/yoki komissiyani Tashkilotdan - ular To'lov summasidan Tashkilotga qolgan mablag' o'tkazilishidan oldin ushlab qolish yo'li bilan undirish; yoxud (b) tegishli yig'im va/yoki komissiyani Foydalanuvchidan - To'lov summasiga qo'shimcha ravishda undirish.
6.4. Размер Комиссии Банка-партнёра определяется Банком-партнёром в соответствии с его документами и условиями соответствующей платёжной инфраструктуры, но не может превышать предельные размеры, предусмотренные пунктом 6.1. Договора. До подтверждения Платежа Платформа отдельно отображает Пользователю Сумму платежа, совокупно Сервисный сбор и Комиссию Банка-партнёра и общую сумму, подлежащую списанию.	6.4. Hamkor bank komissiyasining miqdori Hamkor bank tomonidan uning hujjatlari va tegishli to'lov infratuzilmasi shartlariga muvofiq belgilanadi, lekin Shartnomaning 6.1-bandida nazarda tutilgan maksimal miqdorlardan oshmasligi kerak. To'lov tasdiqlanishidan oldin Platforma Foydalanuvchiga To'lov summasi, Servis yig'imi va Hamkor bank komissiyasi yig'indisini va hisobdan chiqariladigan umumiy summani alohida ko'rsatadi.
6.5. При модели взимания с Организации Банк-партнёр вправе удержать Комиссию Банка-партнёра из Суммы платежа и перечислить остаток Организации. Сумма, зачисляемая Организации, может быть меньше Суммы платежа на размер удержанной Комиссии Банка-партнёра.	6.5. Yig'im va komissiya Tashkilotdan undiriladigan modelda Hamkor bank Servis yig'imi va Hamkor bank komissiyasini To'lov summasidan ushlab qolishga, Servis yig'imini Ijrochiga o'tkazishga, Hamkor bank komissiyasini Hamkor bank foydasiga qoldirishga va qolgan mablag'ni Tashkilotga o'tkazishga haqli. Tashkilotga o'tkaziladigan summa To'lov summasidan ushlab qolingani Servis yig'imi va Hamkor bank komissiyasi miqdoriga kam bo'lishi mumkin.
6.6. При модели взимания с Пользователя общая сумма, списываемая с Пользователя, состоит из Суммы платежа, Сервисного сбора и Комиссии Банка-партнёра. Сервисный сбор и Комиссия Банка-партнёра взимаются поверх Суммы платежа и не уменьшают Сумму платежа, подлежащую перечислению в пользу Организации.	6.6. Yig'im va komissiya Foydalanuvchidan undiriladigan modelda Foydalanuvchining hisobidan chiqariladigan umumiy summa To'lov summasi, Servis yig'imi va Hamkor bank komissiyasidan iborat bo'ladi. Servis yig'imi va Hamkor bank komissiyasi To'lov summasiga qo'shimcha ravishda undiriladi hamda Tashkilot foydasiga o'tkazilishi lozim bo'lgan To'lov summasini kamaytirmaydi.
6.7. Взимание или удержание Сервисного сбора и его перечисление Исполнителю осуществляются Банком-партнёром на основании Договора между Исполнителем и Банком-партнёром. Такое перечисление является расчётом за услуги Исполнителя и не означает оказание Исполнителем платёжных услуг или распоряжение Суммой платежа. Комиссия Банка-партнёра является вознаграждением Банка-партнёра.	6.7. Servis yig'imini undirish yoki ushlab qolish va uni Ijrochiga o'tkazish Ijrochi va Hamkor bank o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida Hamkor bank tomonidan amalga oshiriladi. Bunday o'tkazma Ijrochi xizmatlari uchun hisob-kitob hisoblanadi va Ijrochi tomonidan to'lov xizmatlari ko'rsatilishini yoki To'lov summasi tasarruf etilishini anglatmaydi. Hamkor bank komissiyasi Hamkor bankning haqi hisoblanadi.
6.8. Применимые налоги, порядок оформления электронных счетов-фактур и иные расчётные особенности определяются Заказом и законодательством Республики Узбекистан.	6.8. Qo'llaniladigan soliqlar, elektron hisobvaraqlar-fakturalarni rasmiylashtirish tartibi va boshqa hisob-kitob xususiyatlari Buyurtma hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi.
7. ЗАЧИСЛЕНИЕ, ВОЗВРАТЫ И СПОРНЫЕ ОПЕРАЦИИ	7. HISOBGA KIRITISH, QAYTARISHLAR VA NIZOLI OPERATSIYALAR
7.1. Сроки зачисления Платежей на счёт Организации определяются правилами соответствующей платёжной инфраструктуры и законодательством. Исполнитель не гарантирует конкретный срок межбанковского расчёта.	7.1. To'lovlarni Tashkilot hisobvarag'iga kiritish muddatlari tegishli to'lov infratuzilmasi qoidalari va qonunchilik bilan belgilanadi. Ijrochi banklararo hisob-kitobning muayyan muddatini kafolatlamaydi.
7.2. Организация является получателем Платежей и самостоятельно отвечает перед Пользователями за основание и размер начисления, содержание и качество Услуг Организации, выдачу кассовых, электронных и иных обязательных документов, налогообложение, возврат денежных средств и рассмотрение претензий.	7.2. Tashkilot To'lovlarni oluvchi hisoblanadi va hisoblash asosi va miqdori, Tashkilot xizmatlarining mazmuni va sifati, kassa, elektron va boshqa majburiy hujjatlarni berish, soliqqa tortish, pul mablag'larini qaytarish hamda talabnomalarni ko'rib chiqish uchun Foydalanuvchilar oldida mustaqil javob beradi.
7.3. Возврат полностью или частично исполненного Платежа осуществляется Организацией самостоятельно в соответствии с требованиями действующего законодательства.	7.3. To'liq yoki qisman bajarilgan To'lovni qaytarish Tashkilot tomonidan amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiriladi.
7.4. Срок возврата, основания отказа, порядок оспаривания операции, чарджбэка и распределение связанных расходов определяются законодательством и правилами участвующих банков и платёжной инфраструктуры.	7.4. Qaytarish muddati, rad etish asoslari, operatsiyani nizolash, chardjbek tartibi va u bilan bog'liq xarajatlarni taqsimlash qonunchilik hamda ishtirok etuvchi banklar va to'lov infratuzilmasi qoidalari bilan belgilanadi.

7.5. Организация обязана обеспечить наличие средств и исполнение всех обязанностей, необходимых для возврата или урегулирования оспоренного Платежа, если спор связан с её Услугами, реквизитами, начислением или действиями.	7.5. Agar nizo uning xizmatlari, rekvizitlari, hisoblangan summasi yoki harakatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, Tashkilot nizolashilgan To‘lovni qaytarish yoki tartibga solish uchun zarur mablag‘lar mavjudligini va barcha majburiyatlar bajarilishini ta‘minlashi shart.
8. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ ИСПОЛНИТЕЛЯ	8. IJROCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI
8.1. Исполнитель обязан предоставить Организации доступ к согласованной функциональности Платформы, обеспечивать передачу Платёжной информации Банку-партнёру и получение статусов операций, формировать доступную отчётность и оказывать техническую поддержку в пределах Заказа.	8.1. Ijrochi Tashkilotga Platformaning kelishilgan funksional imkoniyatlaridan foydalanish huquqini taqdim etishi, To‘lov ma‘lumotlarini Hamkor bankka uzatish va operatsiyalar holatini olishni ta‘minlashi, mavjud hisobotni shakllantirishi hamda Buyurtma doirasida texnik yordam ko‘rsatishi shart.
8.2. Исполнитель обязан применять разумные технические и организационные меры для защиты Платёжной информации, находящейся под его контролем, и разграничивать доступ к отчётности Организации.	8.2. Ijrochi o‘z nazoratidagi To‘lov ma‘lumotlarini himoya qilish uchun oqilona texnik va tashkiliy choralarni qo‘llashi hamda Tashkilot hisobotiga kirish huquqlarini chegaralashi shart.
8.3. Исполнитель вправе проводить технические работы, обновлять интерфейс и интеграционные механизмы, а при угрозе безопасности, подозрении на мошенничество, незаконном использовании, просрочке Сервисного сбора или нарушении требований Банка-партнёра временно ограничить доступ к Платформе.	8.3. Ijrochi texnik ishlarni amalga oshirish, interfeys va integratsiya mexanizmlarini yangilash, xavfsizlikka tahdid, firibgarlik gumoni, noqonuniy foydalanish, Servis yig‘imi bo‘yicha kechikish yoki Hamkor bank talablarining buzilishi holatida Platformaga kirishni vaqtincha cheklash huquqiga ega.
8.4. Исполнитель вправе запрашивать у Организации документы и пояснения, необходимые для интеграции, сверки, расследования инцидента, исполнения требований Банка-партнёра и законодательства.	8.4. Ijrochi Tashkilotdan integratsiya, solishtirish, hodisani tekshirish, Hamkor bank va qonunchilik talablarini bajarish uchun zarur hujjatlar va tushuntirishlarni so‘rash huquqiga ega.
9. ОБЯЗАННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ	9. TASHKILOTNING MAJBURIYATLARI
9.1. Организация обязана использовать Платформу исключительно для приёма Платежей за собственные законные Услуги Организации. Без предварительного письменного согласования и наличия законных оснований запрещается принимать Платежи в пользу третьих лиц, осуществлять переводы между Пользователями, выдачу наличных денежных средств, привлечение вкладов, кредитование, выпуск электронных денег или иные финансовые операции.	9.1. Tashkilot Platformadan faqat o‘zining qonuniy Tashkilot xizmatlari uchun To‘lovlarni qabul qilish maqsadida foydalanishi shart. Oldindan yozma kelishuv va qonuniy asoslar bo‘lmasa, uchinchi shaxslar foydasiga To‘lovlarni qabul qilish, Foydalanuvchilar o‘rtasida pul o‘tkazish, naqd pul berish, omonatlarni jalb qilish, kreditlash, elektron pullarni chiqarish yoki boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish taqiqlanadi.
9.2. Организация гарантирует законность Услуг Организации, наличие необходимых лицензий и разрешений, достоверность цен и начислений, а также отсутствие в назначении Платежей запрещённых товаров, услуг или операций.	9.2. Tashkilot Tashkilot xizmatlarining qonuniyligini, zarur litsenziya va ruxsatnomalar mavjudligini, narxlar va hisoblangan summalarining ishonchliligini, shuningdek To‘lov maqsadida taqiqlangan tovarlar, xizmatlar yoki operatsiyalar mavjud emasligini kafolatlaydi.
9.3. Организация обязана до оплаты предоставить Пользователю достоверную информацию о себе как получателе Платежа, Услуге Организации, цене, порядке оказания, отмены и возврата, а также каналах рассмотрения претензий.	9.3. Tashkilot To‘lovdan oldin Foydalanuvchiga To‘lovni oluvchi sifatida o‘zi, Tashkilot xizmati, narx, xizmat ko‘rsatish, bekor qilish va qaytarish tartibi hamda talabnomalarni ko‘rib chiqish kanallari haqida ishonchli ma‘lumot berishi shart.
9.4. Организация самостоятельно рассматривает обращения Пользователей по начислениям, качеству и объёму Услуг Организации, возвратам и спорным Платежам. Исполнитель рассматривает только вопросы технической работы Платформы.	9.4. Tashkilot Foydalanuvchilarning hisoblangan summalar, Tashkilot xizmatlarining sifati va hajmi, qaytarishlar va nizoli To‘lovlar bo‘yicha murojaatlarini mustaqil ko‘rib chiqadi. Ijrochi faqat Platformaning texnik ishlashiga oid masalalarni ko‘rib chiqadi.
9.5. Организация обязана незамедлительно сообщать Исполнителю о подозрительных операциях, компрометации учётной записи, ошибочных начислениях, массовых расхождениях статусов и иных обстоятельствах, способных причинить ущерб Пользователям, Исполнителю или Банку-партнёру.	9.5. Tashkilot shubhali operatsiyalar, hisob qaydnomasi buzilishi, noto‘g‘ri hisoblangan summalar, holatlardagi ommaviy tafovutlar va Foydalanuvchilar, Ijrochi yoki Hamkor bankka zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar haqida Ijrochiga darhol xabar berishi shart.
10. ПЕРСОНАЛЬНЫЕ ДАННЫЕ И ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ	10. SHAXSIY MA‘LUMOTLAR VA AXBOROT XAVFSIZLIGI

10.1. Исполнитель обрабатывает Платёжную информацию и персональные данные в объёме, необходимом для идентификации начисления, технической передачи параметров Банку-партнёру, отображения статуса, формирования отчётности, технической поддержки, предотвращения злоупотреблений и исполнения Договора.	10.1. Ijrochi To'lov ma'lumotlari va shaxsiy ma'lumotlarni hisoblangan summani aniqlash, parametrlarni Hamkor bankka texnik uzatish, holatni ko'rsatish, hisobotni shakllantirish, texnik yordam, suiiste'molliklarning oldini olish va Shartnomani bajarish uchun zarur hajmda qayta ishlaydi.
10.2. Организация обеспечивает наличие надлежащих правовых оснований для передачи Исполнителю идентификаторов Пользователей, сведений о начислениях и иных данных, информирует субъектов в предусмотренных законом случаях и отвечает за законность целей обработки.	10.2. Tashkilot Foydalanuvchi identifikatorlari, hisoblangan summalar haqidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni Ijrochiga berish uchun tegishli huquqiy asoslar mavjudligini ta'minlaydi, qonunda nazarda tutilgan hollarda subyektlarni xabardor qiladi va qayta ishlash maqsadlarining qonuniyligi uchun javob beradi.
10.3. Банк-партнёр самостоятельно определяет порядок обработки платёжных реквизитов, идентификации и подтверждения распоряжения Пользователя в соответствии с законодательством и своими договорными условиями. Исполнитель не несёт ответственности за обработку данных, осуществляемую Банком-партнёром вне технической инфраструктуры Исполнителя.	10.3. Hamkor bank qonunchilik va o'z shartnoma shartlariga muvofiq to'lov rekvizitlarini qayta ishlash, Foydalanuvchini identifikatsiya qilish va uning farmoyishini tasdiqlash tartibini mustaqil belgilaydi. Ijrochi Hamkor bank tomonidan Ijrochining texnik infratuzilmasidan tashqarida amalga oshiriladigan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun javob bermaydi.
10.4. Стороны обязуются применять меры защиты, соответствующие характеру обрабатываемых данных, ограничивать доступ уполномоченными лицами и без неоправданной задержки уведомлять друг друга об инцидентах, способных повлиять на безопасность Платформы или Платежей.	10.4. Tomonlar qayta ishlanadigan ma'lumotlar xususiyatiga mos himoya choralari qo'llash, kirishni vakolatli shaxslar bilan cheklash hamda Platforma yoki To'lovlar xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hodisalar haqida bir-birini asossiz kechiktirmasdan xabardor qilish majburiyatini oladi.
11. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ	11. JAVOBGARLIK
11.1. Исполнитель отвечает только за надлежащее предоставление технической функциональности Платформы в пределах Договора и не отвечает за исполнение Банком-партнёром обязанностей поставщика платёжных услуг.	11.1. Ijrochi faqat Shartnoma doirasida Platformaning texnik funksional imkoniyatlarini tegishli ravishda taqdim etish uchun javob beradi va Hamkor bank tomonidan to'lov xizmatlari yetkazib beruvchisi majburiyatlari bajarilishi uchun javob bermaydi.
11.2. Исполнитель не несёт ответственности за отказ, задержку, отмену, блокировку, возврат, ошибочное зачисление или оспаривание Платежа, если соответствующее обстоятельство вызвано действиями или системами Банка-партнёра, банка Пользователя, платёжной инфраструктуры, Пользователя, Организации либо требованиями законодательства. В частности, Исполнитель не несёт ответственности за перечисление Платежей по ранее предоставленным банковским реквизитам Организации, если Организация не направила либо несвоевременно или ненадлежащим способом направила уведомление, предусмотренное пунктом 4.3.	11.2. Agar tegishli holat Hamkor bank, Foydalanuvchi banki, to'lov infratuzilmasi, Foydalanuvchi, Tashkilot harakatlari yoki tizimlari yoxud qonunchilik talablari bilan bog'liq bo'lsa, Ijrochi To'lovning rad etilishi, kechikishi, bekor qilinishi, bloklanishi, qaytarilishi, noto'g'ri hisobga kiritilishi yoki nizolashilishi uchun javob bermaydi. Xususan, Tashkilot 4.3-bandda nazarda tutilgan xabarnomani yubormagan, kechiktirib yoki tegishli bo'lmagan usulda yuborgan taqdirda, Ijrochi To'lovlarning Tashkilotning avval taqdim etilgan bank rekvizitlariga o'tkazilishi uchun javobgar bo'lmaydi.
11.3. Исполнитель не отвечает за споры между Организацией и Пользователем, связанные с заключением, исполнением, изменением или прекращением договора на Услуги Организации, их качеством, стоимостью, фактом оказания либо возвратом денежных средств.	11.3. Ijrochi Tashkilot va Foydalanuvchi o'rtasida Tashkilot xizmatlari bo'yicha shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish yoki tugatish, ularning sifati, narxi, ko'rsatilganlik fakti yoki pul mablag'larini qaytarish bilan bog'liq nizolar uchun javob bermaydi.
11.4. Организация отвечает за ущерб и требования, возникшие вследствие недостоверных начислений, незаконных Услуг Организации, использования Платформы для платежей третьих лиц, отсутствия обязательных разрешений, нарушения прав Пользователей или непредоставления возврата.	11.4. Tashkilot noto'g'ri hisoblangan summalar, Tashkilotning noqonuniy xizmatlari, Platformadan uchinchi shaxslar to'lovlari uchun foydalanish, majburiy ruxsatnomalarning mavjud emasligi, Foydalanuvchilar huquqlarining buzilishi yoki qaytarish amalga oshirilmaganligi oqibatida yuzaga kelgan zarar va talablar uchun javob beradi.
11.5. Исполнитель не гарантирует отсутствие отказов со стороны банков, непрерывную доступность внешней платёжной инфраструктуры или достижение Организацией определённого объёма Платежей.	11.5. Ijrochi banklar tomonidan rad etishlar bo'lmasligini, tashqi to'lov infratuzilmasining uzluksiz mavjudligini yoki Tashkilot tomonidan muayyan To'lovlar hajmiga erishilishini kafolatlamaydi.
11.6. К ответственности Исполнителя применяются ограничения, установленные Офертой, если императивными нормами законодательства не предусмотрено иное.	11.6. Agar qonunchilikning majburiy normalarida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Ijrochining javobgarligiga Ofertada belgilangan cheklovlar qo'llaniladi.
12. ДОСТУПНОСТЬ И ТЕХНИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА	12. FOYDALANISH IMKONIYATI VA TEXNIK YORDAM

12.1. Исполнитель обеспечивает коммерчески разумный уровень доступности Платформы, за исключением плановых работ, аварий, ограничений каналов связи, работы Банка-партнёра и иных обстоятельств вне разумного контроля Исполнителя.	12.1. Ijrochi rejalashtirilgan ishlar, avariylar, aloqa kanallari cheklovlari, Hamkor bank faoliyati va Ijrochining oqilona nazoratidan tashqaridagi boshqa holatlar bundan mustasno, Platformadan foydalanishning tijorat nuqtai nazaridan oqilona darajasini ta'minlaydi.
12.2. Каналы, режим и объём технической поддержки указываются в Заказе или документации. Исполнитель принимает обращения о работе интерфейса, интеграции, отображении статуса и отчётности.	12.2. Texnik yordam kanallari, tartibi va hajmi Buyurtma yoki hujjatlarda ko'rsatiladi. Ijrochi interfeys, integratsiya, holatni ko'rsatish va hisobot ishlashi bo'yicha murojaatlarni qabul qiladi.
12.3. Вопросы о списании денежных средств, банковском подтверждении, отказе, лимитах, блокировке, возврате и иных платёжных операциях рассматриваются Банком-партнёром или банком Пользователя. Исполнитель вправе содействовать передаче обращения, но не заменяет банковскую службу поддержки.	12.3. Pul mablag'larini hisobdan chiqarish, bank tasdig'i, rad etish, limitlar, bloklash, qaytarish va boshqa to'lov operatsiyalariga oid masalalar Hamkor bank yoki Foydalanuvchi banki tomonidan ko'rib chiqiladi. Ijrochi murojaatni yuborishga ko'maklashishi mumkin, biroq bankning yordam xizmatini almashtirmaydi.
13. СРОК ДЕЙСТВИЯ И ПРЕКРАЩЕНИЕ	13. AMAL QILISH MUDDATI VA TUGATISH
13.1. Срок использования Платформы определяется Заказом. Прекращение доступа осуществляется в порядке, установленном Офертой, с учётом настоящих Специальных условий.	13.1. Platformadan foydalanish muddati Buyurtma bilan belgilanadi. Kirishni tugatish Ofertada belgilangan tartibda ushbu Maxsus shartlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.
14. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ	14. YAKUNIY QOIDALAR
14.1. Индивидуальные параметры Организации, включая Банка-партнёра, банковский счёт получателя, дату активации, способы интеграции, отчётный период, применимую модель взимания Сервисного сбора и Комиссии Банка-партнёра, порядок их удержания или оплаты.	14.1. Tashkilotning individual parametrlari, jumladan Hamkor bank, mablag' oluvchining bank hisobvarag'i, faollashtirish sanasi, integratsiya usullari, hisobot davri, Servis yig'imi va Hamkor bank komissiyasini undirishning qo'llaniladigan modeli, ularni ushlab qolish yoki to'lash tartibi Buyurtmada ko'rsatiladi.

ПРИЛОЖЕНИЕ № 3 К ОФЕРТЕ <i>Форма Заказа на цифровой продукт</i>	OFERTAGA 3-ILOVA <i>Raqamli mahsulotga Buyurtma shakli</i>
Заказ № _____ от « ____ » _____ 20__ года к Публичной оферте Исполнителя	Ijrochining Ommaviy ofertasiga « ____ » _____ 20__ yildagi _____-son Buyurtma
1. СВЕДЕНИЯ ОБ ОРГАНИЗАЦИИ	1. TASHKILOT HAQIDAGI MA'LUMOTLAR
Полное наименование: _____	To'liq nomi: _____
ИНН: _____ Адрес: _____	STIR: _____ Manzil: _____
Расчётный счёт: _____ Банк: _____	Hisob raqami: _____ Bank: _____
МФО: _____ Телефон: _____ E-mail: _____	MFO: _____ Telefon: _____ E-mail: _____
Руководитель/уполномоченное лицо: _____	Rahbar/vakolatli shaxs: _____
Основание полномочий: _____	Vakolat asosi: _____
2. УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОДУКТА	2. MAHSULOT PARAMETRLARI
Наименование Продукта: АИС «eMaktab»	Mahsulot nomi: AAT «eMaktab»
Тариф: ☐ стандарт ☐ всё включено	Tarif: ☐ standart ☐ hammasi ichida
Количество Пользователей/лицензий/единиц: _____	Foydalanuvchilar/litsenziyalar/birliklar soni: _____
Наименование Продукта: Платформа для осуществления платежей	Mahsulot nomi: To'lovlarni amalga oshirish platformasi
Плательщик: ☐ родитель ☐ школа	To'lovchi: ☐ ota-ona ☐ maktab
3. АКЦЕПТ И ПОДПИСИ	3. AKSEPT VA IMZOLAR
Подписывая Заказ, Организация подтверждает, что ознакомилась и полностью согласна с Публичной офертой, указанной редакцией Специальных условий Продукта, тарифом и Документацией. Заказ становится частью Договора с даты его подписания либо иного Акцепта.	Buyurtmani imzolash orqali Tashkilot Ommaviy oferta, Mahsulot Maxsus shartlarining ko'rsatilgan tahriri, tarif va Hujjatlar bilan tanishganini hamda ularga to'liq roziligini tasdiqlaydi. Buyurtma imzolangan yoki boshqa Aksept amalga oshirilgan sanadan Shartnomaning bir qismiga aylanadi.
Оплата по договору производится с расчетного счета организации, который будет указан в данном Заказе, на расчетный счет ООО «KUNDALIK». Оплата с пластиковых карт физических лиц категорически ЗАПРЕЩАЕТСЯ! Актуальная версия Оферты размещается по электронному адресу: https://help.emaktab.uz/hc/ru/articles/10208431981084	Shartnoma bo'yicha to'lov ushbu Buyurtma ko'rsatilgan tashkilotning hisob raqamidan “KUNDALIK” MCHJ hisob raqamiga o'tkaziladi. Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan to'lov qilish qat'iyan TAQIQLANADI! Ofertaning amaldagi tahriri quyidagi elektron manzilda joylashtiriladi: https://help.emaktab.uz/hc/uz/articles/10208431981084
ИСПОЛНИТЕЛЬ: ИП ООО «KUNDALIK» Генеральный директор: _____ / А.А. Потапкин / ОРГАНИЗАЦИЯ: _____ Руководитель/уполномоченное лицо: _____ / _____ / М.П. Дата: « ____ » _____ 20__ г.	IJROCHI: «KUNDALIK» MCHJ XK Bosh direktor: _____ / А.А. Potapkin / TASHKILOT: _____ Rahbar/vakolatli shaxs: _____ / _____ / M.O' Sana: 20__ y. « ____ » _____

ПРИЛОЖЕНИЕ № 4 <i>Форма уведомления о прекращении отдельного Заказа</i>	4-ILOVA <i>Alohida Buyurtmani tugatish haqidagi xabarnoma shakli</i>
ИП _____ ООО _____ «KUNDALIK» _____ Адрес: Республика Узбекистан, г. Ташкент, Чиланзарский район, _____ проспект _____ Бунёдкор, _____ 42/1 _____ E-mail: team@emaktab.uz	«KUNDALIK» _____ MChJ _____ XK _____ Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, _____ Bunyodkor _____ prospekti, _____ 42/1 _____ E-mail: team@emaktab.uz
УВЕДОМЛЕНИЕ о прекращении Заказа на цифровой продукт	BILDIRISHNOMA raqamli mahsulotga Buyurtmani tugatish haqida
Организация: _____ _____	Tashkilot: _____ _____
ИНН _____ и _____ адрес: _____ _____	STIR _____ va _____ manzil: _____ _____
В _____ лице: _____ _____	Vakili: _____ _____
уведомляет Исполнителя о прекращении Заказа № _____ от _____ « ____ » _____ 20__ г. на _____ Продукт _____ « _____ »_.	Ijrochini 20__ yil « ____ » _____ dagi _____ -son Buyurtma bo'yicha « _____ » _____ Mahsulotidan foydalanishni tugatish haqida xabardor qiladi.
Предполагаемая дата прекращения: « ____ » _____ 20__ года.	Tugatishning taxminiy sanasi: 20__ yil « ____ » _____.
Основание/причина _____ (необязательно): _____ _____	Asos/sabab _____ (ixtiyoriy): _____ _____
Организация просит прекратить доступ к указанному Продукту с обозначенной даты, произвести окончательный расчёт и направить инструкции по выгрузке/возврату данных, если такие действия предусмотрены Специальными условиями.	Tashkilot ko'rsatilgan sanadan mazkur Mahsulotga kirishni to'xtatish, yakuniy hisob-kitobni amalga oshirish va, agar Maxsus shartlarda nazarda tutilgan bo'lsa, ma'lumotlarni yuklab olish/qaytarish bo'yicha yo'riqnoma yuborishni so'raydi.
Организация подтверждает обязанность погасить задолженность, оплатить фактически предоставленный доступ и услуги до даты прекращения, а также самостоятельно выгрузить доступные данные в установленный срок.	Tashkilot tugatish sanasigacha qarzdorlikni qoplash, amalda taqdim etilgan kirish va xizmatlar haqini to'lash, shuningdek belgilangan muddatda mavjud ma'lumotlarni mustaqil yuklab olish majburiyatini tasdiqlaydi.
Руководитель/уполномоченное _____ лицо: _____	Rahbar/vakolatli _____ shaxs: _____ _____
Подпись: _____ М.П. Дата: « ____ » _____ 20__ г.	Imzo: _____ М.О'. Sana: 20__ y. « ____ » _____ _____